



O'zbekiston Respublikasi



Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi

Buxoro Davlat universiteti

Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti

Turizm kafedrası

Himoyaga ruxsat etildi

Kafedra mudiri _____ i.f.n. dots. H.R.HAMROEV

«_____» _____ 2015 – yil

Davronov O'lmas

Mavzu: “TUROPERATORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA INTERNET MARKETINGIDAN FOYDALANISH”

5A610302 – Turoperatorlik xizmatini tashkil etish mutaxassisligi

MAGISTR AKADEMIK DARAJASINI OLIH UCHUN YOZILGAN DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: _____ i.f.d., professor B.N.Navro`z-zoda

Himoya sanasi: _____ D.A.K.ning bahosi

«_____» _____ 2015 – yil

D.A.K.ning xulosasi _____

Buxoro – 2015.

Mavzu:”Turoperatorlik faoliyatini tashkil etishda internet marketingidan foydalanish”

Mundarija:

Kirish.....	3
I BOB. Zamonaviy marketing talablariga mos Sayyohlik agentliklari web saytini tuzish.....	8
1.1 Turizm sohasida internet marketing.....	8
1.2 Sayyohlik agentliklari web saytlarining qidiruv tizimlaridagi marketing faoliyati.....	18
1.3 Online qidiruv tarmoqlari marketing imkoniyatlarini tur agentliklari web-saytlari uchun qo'llash.....	26
II BOB. Sayyohlik sohasida Ijtimoiy Tarmoqlardan foydalanish..	
2.1 Ijtimoiy tarmoq web saytlaridan turizm sanoatida foydalanish...	30
2.2 Sayyohlik tashkilotlarining internetdagi obro'-e'tiborini boshqarish.....	42
III BOB. O'zbekiston hududida Internet Marketingi yutuqlaridan foydalanish samaradorligini oshirish.	
3.1 Turoperatorlar faoliyatini avtomatizatsiyalashtirish.....	52
3.2 O'zbekiston turistik tashkilotlarini milliy portal ostida birlashtirish.....	59
Xulosa.....	73
Adabiyotlar ro'yxati.....	78
Ilovalar.	

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: So'nggi yillarda turizm jahon iqtisodiyotining yuqori sur'atlarda rivojlanayotgan sektori va yirik eksport sanoatiga aylanib bormoqda. Turizmning milliy iqtisodiyot rivojlanishida tutgan o'rni nafaqat uning yuqori daromad keltirishi, balki mehnattalab sanoat ish o'rinlarini yaratish orqali bandlik muammosini hal etishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, tabiiy va madaniy muhitni asrashi orqali barqaror rivojlanishni ta'minlashda sezilarli hissa qo'shishi bilan ham belgilanadi.

Hozirgi kunda turistik sanoatni internet tarmog'isiz tasavvur etish amri mahol. Shuningdek, turizm sanoatining ommaviy tus olishining bosh sababi ham internet bilan chambarchas bog'liq.

Internetning eng katta ustunligidan biri, bu biror muammo paydo bo'lishi bilanoq, har kuni, 24 soat davomida, uni hal qilishga yordam beradigan xizmatlarni taqdim etish imkoniyatidir. Ayrim muammolarni masofadan turib hal qilish, kompyuter diagnostikasi yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Internet–marketingdan foydalanish samaradorligi, iste'molchilar qanday tezlik bilan xarid qilishi va mavjud raqobatdosh mahsulotlar o'rtasidagi farqlarni tushunib etishlariga bog'liq bo'ladi. (rasm). Bundan kelib chiqqan holda marketing faoliyatining ayrim yo'nalishlari yanada aniqlashtiriladi.

Marketing tadqiqotlarini o'tkazishda Internetdan foydalanishning quyidagi ustunliklariga alohida e'tibor qaratish lozim:

- tadqiqot o'tkazish tezligi;
- so'rov ishtirokchilari o'zlariga qulay bo'lgan vaqtda so'rovda ishtirok etishlari mumkinligi;
- so'rov ishtirokchilarining qayerda yashashi ahamiyatga ega emasligi;

- so'rov ishtirokchilariga so'rov o'tkazuvchining shaxsi hech qanday ta'sir o'tkazmasligi.

- vizual materiallardan foydalanish.

Internetdan foydalangan holda marketing xizmati xodimlari quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ladilar:

- assortiment, mahsulot tavsifi va narxlarini tezda o'zgartirish;

- xarajatlarni tejash, magazin faoliyatini ta'minlash, pochta orqali jo'natmalar, kataloglarni nashr qilish va boshqa xarajatlar deyarli yo'q;

- potensial iste'molchilarga axborot jo'natish va ulardan javob olish yo'li bilan aloqa o'rnatish;

- korxona saytiga tashrif buyurganlar sonini hisoblab borish

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining maqsadi. Globallashuv sharoitida rivojlangan mamlakatlarda foydalanilayotgan internet marketing rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ushbu sohada rivojlangan mamlakatlar tajribasidan O'zbekistonda foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining vazifalari quyidagilardan iborat:

- online turizm va turizmدا internet marketing nazariyasi bo'yicha turli iqtisodiy qarashlarni o'rganish va ularni baholash asosida turizmدا online marketing mohiyatini yoritib berish va uning obyektiga qarab tasniflash;

- Butunjahon Turistik Tashkilotining mas'lumotlariga asoslangan holda jahon mamlakatlari turistik industriyasida Internet marketing rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish;

- Internet marketing bo'yicha turistik yetakchi mamlakatlar tajribasini o'rganish;

- Jahonda internet marketing rivojlanishi dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar va shart-sharoitlarni aniqlash;

- Jahon mamlakatlaridagi turistlarni sayohat maqsadida internetdan foydalanish darajasiga ko'ra segmentlash asosida o'rganish;

- Jahon turizmida internet marketingining asosiy yo'nalish va istiqbollari asoslab berish;

- Rivojlangan mamlakatlar internet marketingining turizm sohasidagi xalqaro tajribasidan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish.

Magistrlik dissertatsiyasining obyekti – Rivojlangan mamlakatlar turistik tashkilotlarida internet marketing yutuqlaridan foydalanish usullari.

Magistrlik dissertatsiyasining predmeti – online turizm sohasini rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlardan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda jahon mamlakatlari turizmida internet marketing rivojlanishining bugungi holatini tahlil etish asosida jahon tajribasidan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari yoritib berilgan.

Magistrlik dissertatsiyasining axborot bazasi. Turizm industriyasida internet marketingining rivojlanishi xususiyatlarini tahlil qilishda asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari, O'zbekiston Respublikasi "Turizm to'g'risida"gi qonuni, mahalliy va xorijiy adabiyotlar, Butunjahon Turistik Tashkilotining maqolalari, BTT turizm va tijorat marketing boshqarmasi ma'lumotlari, internet tizimidagi mavjud axborotlar, "O'zbekturizm" MK ma'lumotlaridan hamda turli statistic manbalardan foydalanilgan.

Magistrlik dissertatsiyasining amaliy ahamiyati. Ushbu magistrlik dissertatsiya ishining amaliy ahamiyati shundan iboratki, undagi ilmiy asoslangan tavsiya va takliflardan “Turizmda strategic marketing”, “Turizm marketingi” fanlaridan ma’ruza matnlari, o’quv uslubiy majmualar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar tahlili. Ilmiy ishning nazariy va uslubiy jihatlari, xorijiy olimlardan Anderson, R. E., Srinivasan, S. S. Smith, P.R., Chaffey, D., Marcussen, C.H., Liu, Zhenhua, Citrin, A.V., Sprott, D.E., Silverman, S.N. & Stem, D.E B.V.Klimenko, A.G.Nikolayevskiy, N.F.Reymers, F.R.Xitilmark, V.V.Xrabovchenko, B.A.Achibekov, M.A.alkadirov, T.V.Bachkaryova, A.B.Kosalapoye, I.G.Miz, A.V.Drazdov va boshqalarning ilmiy asarlarida yoritib berilgan.

O'zbekistonda turizmda internet marketingni o'rganishda Sh.Jo'rayeva, I.Ibrohimov, Z.Izzatullayev, A.Nig'matov, M.Mamanazarov, Y.Sh.Shodmetov, N.To'xliyev, T. Abdullayeva, M.Xoshimov, A.Xudoyberdiyev, M.Mamatqulov va boshqalarning hissasi katta bo'lib, ular mazkur sohaning istiqbolli imkoniyatlari, uni boshqarishning nazariy va amaliy asoslari hamda rivojlantirish yo'llarini o'zlarining asarlarida yoritganlar.

Magistrlik dissertatsiyasi tuzilmasining tavsifi. Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining o'rganilganlik darajasi, ishning maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi hamda amaliy ahamiyati o'z aksini topgan.

Ishning birinchi bobi “Turistik tashkilotlar uchun marketing talablariga mos web sayt tuzish ” deb nomlangan bo'lib, o'z ichiga 3 ta rejadan tarkib topgan. Ushbu bobda web saytlarni tahlil qilish va rivojlantirish, qidiruv tizimlari, hamda qidiruv tizim avtomatizatsiyasidan qanday qilib turistik tashkilotlar web saytlarini ommaboplashtirishda foydalanish haqida tushuncha

berilgan hamda rivojlangan mamlakatlardagi turistik tashkilotlar tajribasi tahlil qilingan.

Ishning ikkinchi bobi “Turistik sohada Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish” deb nomlangan bo’lib, 2 rejadan tashkil topgan. Ushbu bobda esa, Ijtimoiy tarmoq web saytlaridan turistik sanoatda foydalanish haqida, turistik tashkilotlarning internetdagi mavqe’ini hamda ishonchlilik darajasini ko’tarish va saqlash haqida ma’lumot va faktlar keltirilgan.

Ishning uchinchi bobi “Internet marketing bo’yicha Rivojlangan mamlakatlar tajribasini O’zbekiston sharoitida qo’llash ” deb nomlangan bo’lib, 2 ta reja asosida yoritilgan. Ushbu bobda Internet marketingidan O’zbekiston turizm bozorida qanchalik foydalanilayotganligi va qanday yangi imkoniyatlar kelajakda foydalanish mumkinligi haqida tahlillar asosida so’z yuritiladi.

Ishning xulosa qismida Magistrlik dissertatsiyasining asosiy natijalari, amaliy tavsiya va takliflar umumlashtirilgan.

I BOB. Zamonaviy marketing talablariga mos Sayyohlik agentliklari web sayti tuzish.

1.1 Turizm sohasida internet marketing.

Bugungi kunda turizm industriyasi jahon iqtisodiyotining ajralmas bir qismiga aylanib ulgurdi. Bunda turistik soha mutaxassislarining hamda ilm-fan rivojining salmog'i beqiyosdir. Turistik sohada innovatsion texnika va texnologiyalardan foydalanish hozirgi zamon talabiga aylangan bir jadal zamonda turizm sohasi mutaxassislari ya'ni- turoperatorlar innovatsion texnika-texnologiyalardan foydalanishni bilishlari muhim ahamiyatga ega.

Shunga ko'ra ushbu maqolada turizm sohasida internet, internet marketingi yutuqlaridan qanday foydalanish haqida so'z yuritmoqchiman.

Internet dunyoning barcha mamlakati aholisi va korxonalarini virtual bog'lash imkonini bermoqda. Bugungi kunda xalqaro tarmoqqa har kuni 1 mlrd dan ortiq kishi ulanadi. Bu esa, internet tarmog'ining qolgan barcha media vositalariga nisbatan katta ustunlikka erishganligini ko'rsatadi.

Shunday ekan butun jahon iqtisodchilari va marketologlarining internet marketingiga qiziqish bilan qarashlari tabiiydir.

Ayniqsa turizm sohasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bir hudud (mamlakat, shahar, va h.k.) dagi mutaxassislar boshqa bir hududdagi kishilarni o'z turistik destinatsiyasiga qiziqтира olishi kerak. Bunda soha professionallari bo'lg'usi mijozlari bilan aloqani yo'lga qo'yish uchun turli ommaviy aloqa vositalariga murojaat qilishga ehtiyoj sezadilar. Internet esa bu vositalarning eng optimalidir.

Internetning boshqa marketing vositalaridan ustunligiga kelsak, internet quyidagi ustunliklarga ega:

- internet bizga tez ko'p ma'lumotlar almashish

- bir kanal yordamida ko'pgina kanallarga chiqish,
- Sotuvchilar nazdida eng ko'p xaridorlarga ega bo'lgan bozor
- Xaridorlar nazdida eng ko'p sotuvchilarga ega bo'lgan bozor

Mashhur amerikalik yozuvchi moliya va iqtisod fanlari bo'yicha pedagog Robert Kiyosaki o'zining Rich dad's guide to investigating asarida yozganidek bugun dunyo 14 yoshga to'ldi. Bunday deyilishiga sabab 14 yil muqaddam "Industrial age" ya'ni Sanoat asri tugab, Information age ya'ni Axborot asri boshlandi.

Sanoat asrida moddiy manbalar (tovar, mahsulot yoki xom ashyo) iqtisodiy qiymat vazifasini bajargan bo'lsa, endilikda bu o'rinni axborot egalladi. Bu dunyoda ma'lumot cheksiz, bilim cheksiz bo'lib, axborot shu boilimlarning saralangan foydali va aynan kerakli qismidir.

Maqolani axborot so'zini tavsiflash bilan boshlaganligimizga sabab turizm bozorini shakllantirish, tartibga solish va mo'tadillashtirishda axborotning ahamiyati beqiyosdir. Shuning uchun zamonaviy dunyoning eng asosiy qiymat birligi axborotdan qanday qilib to'g'ri foydalanishni o'rganish bu marketing fanining predmetidir.

Internet tarmog'ining rivojlanishi iqtisodiyotning barcha sohalarida xususan turizm sanoatida ham keskin ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirdi.

Soha mutaxassisleri ya'ni turoperatorlar va turagentlar mijozlari turistlar bilan yanada yaqin aloqani o'rnatishga erishishdi. Bunday aloqa bo'lajak turistlarga o'zlari sotib olayotgan turistik mahsulot haqida shuningdek, uni taklif etayotgan firmalar haqida ko'proq ma'lumot olish imkonini bermoqda.

Shuni ta'kidlash joizki internetning rivoji turizm bozori qoidalariga ham keskin o'zgarish kiritdi. Endilikda bu 30 yil oldin mavjud bo'lgan ko'pgina ishlar va ishchilarga talab yo'qoldi va yangi zamonaviy mehnat o'rinlari yuzaga keldi.

Endilikda, turning sotilish, sotilmasligini zanjirli turistik offislar, kata-kata binolar emas balki virtual officelar ya'ni sizning turistik tashkilotingiz nomidan faoliyat ko'rsatayotgan web-saytlar hal qiladigan bo'ldi.

Endilikda, turistik tashkilotlar ko'plab ishchilardan tarkib topmasdan, bor-yo'g'i bir nechta administrativ ishchilardan tashkil topmoqda va ilgari ko'plab ishchilar officelarda o'tirib bajargan ishlarini yollanma on-line ishchilar (frilanserlar) bajarishmoqda.

Bu o'zgarishlar kim uchundir salbiy bo'lib, tuyulishi mumkin, ammo chuqur o'ylab qaralsa bunday o'zgarishlar turistik tashkilotlar uchun ham uning virtual ishchilari uchun ham juda qulay va yaxshi ekanligini tushunib yetasiz. Masalan, virtual ishchilar avvalo bermalol uyda o'tirib ham ishlashlari bir qulaylik bo'lsa boshqa tomondan ular bir vaqtning o'zida bir nechta tur firmalar bilan ishlashlari ko'proq pul jamg'arishlari, uyda bermalol oilalari davrasida dam olishlari hamda har kuni transport bilan ishxonaga qatnashga ketadigan vaqt va xarajatlarini tejashlari mumkin.

Tur firmalar esa katta binolarni ijaraga olish, boshqaruv xarajatlari va ovoragarchiliklaridan xalos bo'lishdi.

Internetning rivoji marketingga bo'lgan munosabatni ham o'zgartirib, internet marketing degan tushunchani vujudga keltirdi.

Internet marketing bu- nima?

Internet marketingi – bu siz uyingizdan chiqmay turib, kompyutingizda internetga ulanib web saytingiz orqali yoki boshqalarning web-saytlari orqali o'z turistik mahsulotingizni millionlab, milliardlab bo'lajak mijozlarga tanishtirish, sotish, reklama qilish imkoniyatidir.

Turistlar esa, o'z kompyuter (kompyuter, uyali aloqa telefonlari, notebook, planshet, guidebook, netbook, smart-phone)lari orqali o'zlari xohlagan davlat, shahar, destinatsiyalari bo'yicha turlarni ko'rishlari,

solishtirishlari, ulardan avval shu tur mahsulotni sotib olgan turistlarning fikrlarini o'qishlari, shundan kelib chiqib o'zlari xohlagan tur paketni xarid qilishlari va sayohatdan keyin o'zlari sotib olgan tur haqida, sayohat qilishgan destinatsiyalari haqida fikrlarini blog va kommentariylar orqali bildirishlari mumkin.

Internetning odatiy bozorlarga ta'siri bozor ishtirokchilarini biroz cho'chitib qo'yishi mumkin biroq, iqtisodiyot doimiy o'zgaruvchan sohadir. Bu o'zgarishlarga moslasha olganlar endilikda yangi bozor ishtirokchilariga ya'ni g'oliblarga, moslasha olmaganlar esa mag'lublarga aylanishadi. Yangi bozor ishtirokchilariga aylanib ulgurganlarga misol qilib, dunyodagi eng katta internet bozorini tashkil eta olgan Amazon.com haqida biroz so'z yuritamiz. Kompaniya asoschisi Jeff Bezos saytga nom tanlarkan, izlash qatoriga tez qalqib chiqadigan so'z bo'lishini xohlagan edi. Qolaversa, bu so'zda alifboning birinchi va oxirgi harflari (A va Z) borligi ham unga ma'qul bo'ldi: Bezos bir kun kelib hamma narsa uning sayti orqali sotilishidan umid qildi. Darhaqiqat, bugun Amazon web-do'konidan xohlagan tovarni xarid qila olasiz: aspirindan tortib maysa qirqish mashinasigacha, kuchukchalar uchun sviterdan-elektron kitoblargacha. Har soniyada saytda 35 ta xarid amalga oshiriladi.

Adam Smitt 1776-yilgi "Xalqlar boyligi" asarida barcha xaridorlar barcha sotuvchilarning belgilagan narxini biladigan va barcha sotuvchi o'z tovari uchun bozorga nisbatan qancha haq so'rashi kerakligini biladigan olam haqida so'z yuritadi.

Bizning olamimiz hali bu qadar rivojlagani yo'q, biroq Adam Smitt orzusidagi bu dunyoning shakllanib borishida internetning o'rni beqiyos deb o'ylayman. Bugungi kunda har qanday kishi o'z uyidan ko'chaga chiqmay turib, kompyuteri yoki uyali aloqa vositasi yordamida internetga ulanishi va xohlagan tovari yoki xizmatini sotib olishi, band qilishi, qayta sotishi, tovar haqida o'z fikrini bildirishi va hokazolar qilishi mumkin.

Internetning odatiy bozorlarga ta'siri bozor ishtirokchilarini biroz cho'chitib qo'yishi mumkin biroq, iqtisodiyot doimiy o'zgaruvchan sohadir. Bu o'zgarishlarga moslasha olganlar endilikda yangi bozor ishtirokchilariga ya'ni g'oliblarga, moslasha olmaganlar esa mag'lublarga aylanishadi. Yangi bozor ishtirokchilariga aylanib ulgurganlarga misol qilib, dunyodagi eng katta internet bozorini tashkil eta olgan Amazon.com haqida biroz so'z yuritamiz. Kompaniya asoschisi Jeff Bezos saytga nom tanlarkan, izlash qatoriga tez qalqib chiqadigan so'z bo'lishini xohlagan edi. Qolaversa, bu so'zda alifboning birinchi va oxirgi harflari (A va Z) borligi ham unga ma'qul bo'ldi: Bezos bir kun kelib hamma narsa uning sayti orqali sotilishidan umid qildi. Darhaqiqat, bugun Amazon web-do'konidan xohlagan tovarni xarid qila olasiz: aspirindan tortib maysa qirqish mashinasigacha, kuchukchalar uchun sviterdan-elektron kitoblargacha. Har soniyada saytda 35 ta xarid amalga oshiriladi.

Internetning ta'siri boshqa tarmoq bozorlaridan ko'ra, turizm bozorida kuchliroq o'z aksini topgan sababi turistik xizmatlar virtual hisoblanadi va mijoz qaysi tur mahsulot haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lsa, o'sha tur paketni tanlashga o'zida moyillik sezadi. Shuningdek, bu bozorda raqobat ham ancha rivojlangan bo'lib turistik tashkilotlar o'z mahsulotlarini internet orqali mijoz uchun tushunarli, yoqimli va ishonchli reklama qilishga, sayтини yaratishga, mijoz bilan sayohatgacha, sayohat paytida va sayohatdan keyin virtual birga bo'lishga intiladilar.

Internetdagi saytlar turistik tashkilotlarga ko'proq, osonroq va tezroq turistik mahsulotlarini reklama qilish, sotish va marketing faoliyatini olib borib o'z brendini kuchaytirish imkonini beradi.

Turistlar va bo'lajak turistlar esa, internet orqali o'zlari sayohatga chiqmoqchi bo'lgan davlatlari haqida ma'lumot olishlari, fikr almashishlari va sayohat qilgan destinatsiya(mehmonxona, restoran, gid va h.k. xizmat)lari haqidagi fikrlarini tarmoqqa kiritishlari mumkin. Shunday mashhur saytlardan biri TripAdvisor.com saytidir. Bu saytda sayohatchilar o'zlari sayohat qilgan mamlakat haqida, xizmatidan foydalanishgan turistik firma haqida, tunagan

mehmonxalari haqida, ovqatlangan restoranlari haqida, xizmatidan foydalangan gid-tarjimon haqida va hokazolar haqida fikrlarini blog sifatida yozib qoldirishadi va yulduz(*) lar soni bilan baholash sistemasiga o'xshash besh balli sifatni baholash sistemasida baholaydilar. Turistik korxonalarining sobiq turistlar tomonidan bunday "reklama qilinishi" bo'lg'usi turistlar uchun eng ishonchli reklama hisoblanadi. Tur firmalar bunday bepul biroq o'ta samarali reklamalardan to'g'ri foydalana olishlari ularni bozorda yetakchi o'ringa ko'tarishi turgan gap.

Internetning boshqa media vositalaridan ustunligiga turist va tur operator orasida teskari aloqaning mavjudligi, reklamaning arzon hatto ba'zida tekin ekanligi, tinglovchilar auditoriyasining juda katta ekanligini keltirish mumkin. Iqtisodchilar orasida "Agar Facebook tarmog'ini mamlakat sifatida qaraydigan bo'lsak, dunyoda aholi soni bo'yicha 700 mln dan ortiq foydalanuvchilari bilan Hindiston va Xitoydan keyin 3-o'rinda turardi" degan argument mavjud.

Ijtimoiy tarmoqlarga chuqurroq to'xtaladigan bo'lsak, ular turistik firmalar uchun bepul biroq, samarali reklama maydoni vazifasini bajarishi mumkin. Internetda bunday tarmoqlar ko'p ammo yuqori ahamiyatlilari sanoqli. Bunday tarmoqlarning ahamiyati ularga a'zolar va kunlik tashrif buyuruvchilar soniga bog'liq. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, Twitter.com tarmog'i 200 mlndan ortiq tashrif buyuruvchilari bilan (Facebook.com dan keyin)2- o'rinda turadi. Keyingi o'rinni 111 mln foydalanuvchilari Вконтакте.ru tarmog'i egallaydi.

Twitter bu o'z foydalanuvchilariga 140 belgigacha bo'lgan xabarlar almashish imkonini beruvchi mikro blogging vositasidir.2010-yil aprelda 105 million foydalanuvchi ro'yxatga olingan va har kuni 300 000 yangi foydalanuvchi qayd qilingan.

LinkedIn bu kasbiy ijtimoiy tarmoq o'z CV tarjimai holingizni chop etish va do'stlaringiz hamda hamkasblaringiz bilan almashish imkonini beradi.

Myspace bu eng muhim va eng birinchi saytlardan biri edi. Biroq sayt o'z qadrini yo'qotib bormoqda va uning avvalgi foydalanuvchilari

foydalanilishi juda oson bo'lgan Face book va Twitterga o'tib ketishgan.

Friendfeed bu ijtimoiy tarmoq xilma-xil ijtimoiy tarmoqlarni birlashtirgan (Twitter, Face book, You tube, Flickr, Daily motion, va h.k.)

Google va turizm

Google Travel sayohatchining har bir bosqichdagi ehtiyojlari uchun maxsus vositalarni rivojlantirdi. Bu ehtiyojlar orzu qilish, izlash, bron qilish, yashab ko'rish va tarqatish. Bu talablarga 15 tacha sayt orqali javob berildi, shulardan:

Google Places o'zida shunchaki web sahifalarini emas balki haqiqiy manzillarni jamlagan, tashkilotlari kategoriyalari, butiklari ochilish jadvallari, restoranlari menyulari va h.k. lar bunda ko'rsatilgan.

Shuningdek, Google Places da, Tripadvisor da, Qype da, Hotel.com larda sayohatchilar qoldirgan fikrlarni o'qish mumkin. Bunda o'zingizga kerak bo'lgan joy yoki mehmonxona yoki restoran nomini topib tanlaysiz hamda sizdan oldin bu joyni sayohat qilganlar fikrini o'qiysiz, bu sizga foydali maslahat kabi ta'sir qilishi mumkin.

Google Flight bu xohlagan manzilingizga xohlagan joyingizdan reyslarni ko'rish mumkin bo'lgan sayt. Bunda siz google.maps orqali siz uchmoqchi bo'lgan ikki shaharni xaritadan belgilaysiz va barcha reyslar haqida ma'lumotga ega bo'lasiz. Saytning noqulayligi bu mobile variantining yo'qligidir.

Google Hotel Finder bu on-line bron qilish saytlariga ulangan mehmonxonalarni qiyoslaydigan saytdir.

Turizm raqamli revolyutsiyasini bir so'z bilan "SO-LO-MO" deb atash mumkin. Bu qisqartma o'zida 3ta so'zni jamlagan bo'lib, ularning har biri turistik mahsulot sotuvini yaxshilashda muhim bo'lgan asosiy iboralardir.

1-dan turizm SOcial ya'ni ijtimoiy bo'lishi kerak.

2-dan turizm LOcal ya'ni mahalliy to'g'rirog'i topib bo'ladigan(joylashgan o'rni) bo'lishi kerak.

3-dan turizm MObile bo'lishi kerak. Bunda shuni ta'kidlash kerakki Fransiyada va Yevropada e-turizmning rivojlangan ko'rinishi m-turizm

tushunchasi ham paydo bo'lgan va keng qo'llanadi. Sababi, Mobile Turizm ko'proq ommaga va osonroq va qulayroq (mijozga) shaklda murojaatga chiqish imkonini beradi. Mijoz hamma vaqt ham netbook yo planshet foydalana olmasligi mumkin biroq juda kata massa mobile telefonga ega.

Bugungi kunda aholining uchdan bir qismdan ko'proq qismi internet o'z mobile telefoni orqali kiradi.

Auditoriyaning kattaligi turistik firmalarga bo'lajak mijozlardan "Zanjir reaksiyasi" tarzida foydalanish imkonini beradi. Shunday ekan, bunday katta auditoriyada o'z marketing faoliyatini yo'lga qo'ya olgan tur firmalar haqiqiy



biznes sohasidagi xazinaga erisha olgan deb aytish mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarga chuqurroq to'xtaladigan bo'lsak, ular turistik firmalar uchun bepul biroq, samarali reklama maydoni vazifasini bajarishi mumkin. Internetda bunday tarmoqlar ko'p ammo yuqori ahamiyatlilari sanoqli. Bunday tarmoqlarning ahamiyati ularga a'zolar va kunlik tashrif buyuruvchilar soniga bog'liq. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, Twitter.com tarmog'i 200 mlndan ortiq tashrif buyuyruvchilari bilan (Facebook.com dan keyin)2- o'rinda turadi. Keyingi o'rinni 111 mln foydalanuvchilari Вконтакте.ru tarmog'i egallaydi.

Twitter bu o'z foydalanuvchilariga 140 belgigacha bo'lgan xabarlar almashish imkonini beruvchi mikro blogging vositasidir. 2010-yil aprelda 105 million foydalanuvchi ro'yxatga olingan va har kuni 300 000 yangi foydalanuvchi qayd qilingan.

FlickrR 2004 yilda yaratilgan, FlickrR bu rasmlar ijtimoiy tarmog'idir. Fotograflar, professionallar yoki havaskorlar bu yerda o'z suratlarini joylashtirishlari mumkin. FlickrR va Face book 15 milliard rasmni jamlagan.

LinkedIn bu kasbiy ijtimoiy tarmoq o'z CV tarjimai holingizni chop etish va do'stlaringiz hamda hamkasblaringiz bilan almashish imkonini beradi.

Viadeo bu kasbiy ijtimoiy tarmoq ham CV yozish imkonini beradi. Bu tarmoq nima uchun kerak? Odamlar o'z kasbiy aloqalarini va aloqadagi kishilarini ko'paytirmoqchi edilar. 2009-yil oktabrda sayt 25 million a'zoni va har kuni 100 000 kishini saytda ishlayotganini qayd qilgan.

Myspace bu eng muhim va eng birinchi saytlardan biri edi. Biroq sayt o'z qadrini yo'qotib bormoqda va uning avvalgi foydalanuvchilari foydalanilishi juda oson bo'lgan Face book va Twitterga o'tib ketishgan.

Friendfeed bu ijtimoiy tarmoq xilma-xil ijtimoiy tarmoqlarni birlashtirgan (Twitter, Face book, You tube, FlickrR, Daily motion, va h.k.)

Google va turizm

Google Travel sayohatchining har bir bosqichdagi ehtiyojlari uchun maxsus vositalarni rivojlantirdi. Bu ehtiyojlar orzu qilish, izlash, bron qilish, yashab ko'rish va tarqatish. Bu talablarga 15 tacha sayt orqali javob berildi, shulardan:

Google Places o'zida shunchaki web sahifalarini emas balki haqiqiy manzillarni jamlagan, tashkilotlari kategoriyalari, butiklari ochilish jadvallari, restoranlari menyulari va h.k. lar bunda ko'rsatilgan.

Shuningdek, Google Places da, Tripadvisor da, Qype da, Hotel.com larda sayohatchilar qoldirgan fikrlarni o'qish mumkin. Bunda o'zingizga kerak bo'lgan joy yoki mehmonxona yoki restoran nomini topib tanlaysiz hamda

sizdan oldin bu joyni sayohat qilganlar fikrini o'qiysiz, bu sizga foydali maslahat kabi ta'sir qilishi mumkin.

Google Flight bu xohlagan manzilingizga xohlagan joyingizdan reyslarni ko'rish mumkin bo'lgan sayt. Bunda siz google.maps orqali siz uchmoqchi bo'lgan ikki shaharni xaritadan belgilaysiz va barcha reyslar haqida ma'lumotga ega bo'lasiz. Saytning noqulayligi bu mobile variantining yo'qligidir.

Google Hotel Finder bu on-line bron qilish saytlariga ulangan mehmonxonalarni qiyoslaydigan saytdir.

You tube va Daily motion

Bu saytlar video fayllarni o'rnatish, va boshqalar o'rnatganini ko'rish imkonini beruvchi saytlardir. Siz o'zingiz qiziqqan shahar yoki davlat nomini yozasiz va ular haqidagi video fayllarni ko'rishingiz va ko'chirib olishingiz mumkin. Odatda bu video fayllarni turizm professional mutaxassislari jolashtiradilar.

Rezotour yordamida siz butunlay bturizm sanoati mutaxassislariga mo'ljallangan ijtimoiy tarmoqlarga kirishingiz mumkin. Bu tarmoq "Espaces" jurnali tomonidan tashkil etilgan bo'lib, 2011-yilning 26-mayida 8104 a'zo qayd qilingan. G'oyalar, maslahatlar, tajriba almashish, bozor yangiliklari va ishga taklifnomalar bu yerda taqdim etiladi.

Turizm raqamli revolyutsiyasini bir so'z bilan "SO-LO-MO" deb atash mumkin. Bu qisqartma o'zida 3ta so'zni jamlagan bo'lib, ularning har biri turistik mahsulot sotuvini yaxshilashda muhim bo'lgan asosiy iboralardir.

1-dan turizm SOcial ya'ni ijtimoiy bo'lishi kerak.

2-dan turizm LOcal ya'ni mahalliy to'g'rirog'i topib bo'ladigan(joylashgan o'rni) bo'lishi kerak.

3-dan turizm MObile bo'lishi kerak. Bunda shuni ta'kidlash kerakki Fransiyada va Yevropada e-turizmning rivojlangan ko'rinishi m-turizm tushunchasi ham paydo bo'lgan va keng qo'llanadi. Sababi, Mobile Turizm ko'proq ommaga va osonroq va qulayroq (mijozga) shaklda murojaatga chiqish

imkonini beradi. Mijoz hamma vaqt ham netbook yo planshet foydalana olmasligi mumkin biroq juda kata massa mobile telefonga ega.

Bugungi kunda aholining uchdan bir qismdan ko'proq qismi internet o'z mobile telefoni orqali kiradi.

Auditoriyaning kattaligi turistik firmalarga bo'lajak mijozlardan "Zanjir reaksiyasi" tarzida foydalanish imkonini beradi. Shunday ekan, bunday katta auditoriyada o'z marketing faoliyatini yo'lga qo'ya olgan tur firmalar haqiqiy biznes sohasidagi xazinaga erisha olgan deb aytish mumkin.

1.2 Sayyohlik agentliklari web saytlarining qidiruv tizimlaridagi marketing faoliyati

Qidiruv tizimlari iste'molchilarga internetda qidirayotgan ma'lumotlarini topishga yordam bradi. Hozirgi paytdagi eng katta qidiruv motorlariga bozorning 65% ulushiga ega Google, 17 %ga ega Yahoo va 14%ga ega Microsoft korporatsiyaning Bing tarmog'idir.¹

Sayohat rejalarining ko'pchiligi qidiruv mexanizmlari orqali boshlanadi. AQShlik sayohatchilarning 76%i, Fransuz sayohatchilarining 80%i, Nemis sayohatchilarning 84%i, va Buyuk Britatiyalik sayohatchilarning 81%i sayohatgoh tanlash paytida hech bo'lmasa bitta qidiruv tarmog'idan foydalanib qaysi destinatsiyaga borishda bir qarorga kelishadi. Kanadaliklarning esa 50%i mehmonxona yoki avia kompaniya tanlashni qidiruv tarmoqlari orqali boshlashar ekan.²

Qidiruv tarmoqlari yildan yilga tobora ilg'or bo'lib bormoqda va ixtisolashgan qidiruv va qidiruv natijalarini taklif etmoqda. Google, Yahoo, va Bing tarmoqlari rasmlar, yangiliklar, bloglar va boshqalarni izlash uchun alohida qidiruv mexanizmlariga ega. Kayakka o'xshash qidiruv tarmoqlari iste'molchilarga ko'plab online sayohat agentliklari orasidan uchish reyslari, mehmonxonalar, lizing avtomobillar topish imkonini beradi.

Google Maps sayohatchilarga mahsulotni bevosita xaritadan izlash imkonini beradi. Shuningdek, Google Maps dasturining 40 %i mobil qurilmalar orqali ham foydalanilib bo'lishini Google korporatsiyasi tasdiqlagan³. Restoran tashkilotlari uchun esa Google Maps iste'molchilar ularni topishlari uchun juda muhim vosita bo'la oladi.

¹ Manba comScore, may 2011

² Manba PhoCusWright, 2010

³ Marissa Mayer, Mart 2010

Standart onlayn qidiruv hozir muntazam natijalar yangiliklar, tasvirlar, video, yangiliklar, va xarita murojaatlari bilan boyitilgan, integratsiyalashgan bir sahifani olib keladi. Qidiruv natijalari ham kundan kunga moslashtirilgan bo'lib bormoqda. Qidiruv tarmog'lari qidiruvchining joyini belgilaydi va shunga asoslanib maxsuslashgan natijalarni yetkazib beradi. Shuningdek, ular yanada alohida natijalarni izlash uchun do'stlaringiz nimalarni yoqtirishlariga tayangan holda natijaga erishish maqsadida ijtimoiy tarmoqlardan ham foydalanishmoqda.

Shuningdek, tur operator sifatida ham qidiruv tarmoqlaridan foydalanishda strategiyaga ega bo'lish juda muhim. Qayerlik mijozlar bilan aloqaga kirishishingizga asosan to'g'ri taktikaga tayangan holda turli qidiruv tarmoqlaridan foydalanishingiz kerak.

On line maqsadlaringizga erishishda qidiruv tarmoqlaridan foydalanishning ikkita boshlang'ich yo'li mavjud:

Qidiruv tarmog'i optimizatsiyasi (SEO) va Qidiruv tarmog'i marketingi

Qidiruv tarmog'i optimizatsiyasi (SEO yoki organic qidiruv) bu qidiruv tarmoqlarida web saytning tabiiy qidiruvlar vositasida darajasining oshishidir. Biror kishi kalit so'zni kiritib enter tugmasini bosadi va qidiruv tarmog'i eng mantiqiy yaqin bo'lgan variant larni mijozga taqdim etadi. Qidiruv tarmog'i so'rov va natijaning bog'liqligini ilg'or algoritmlar asosida tekshirib ko'radi.

SEO natijasida trafik bepul va yuqori darajada kafolatlangan. Qisqasi, sizning saytingizga tashrif buyuruvchi mijoz maxsus kalit so'zlarni terish orqali ma'lumotni izlaydi va Qidiruv tarmog'i agar mijoz tergan kalit so'z va saytingiz ma'lumotlari orasida o'xshashlik sezsa, uni yuqori qatorga olib chiqadi. Va mijoz eng birinchi sizning web sahifangizga duch keladi.

Tur operatorlarning 70%idan ortig'ining web saytiga tashrif buyuruvchilar asosan tabiiy qidiruv mexanizmlari orqali ularni topishadi. Agar siz dunyoning istalgan nuqtasida bo'lishingizdan qat'iy nazar web saytingiz

orqali sotuv jarayonini amalga oshirayotgan bo'lsangiz, SEO web saytingizga tashrif buyuruvchilarni yo'naltirishning eng yaxshi usullaridan biridir.

Agar sizda web sayt mavjud bo'lsa tezlik bilan uning nomini Google qidiruv tarmog'ida terib ko'ring. Ro'yxatning boshida yoki boshrog'ida sizning web saytingiz chiqishi kerak. Mobodo shunday bo'lmasa sizning web saytingiz SEO talablarida mos faoliyat olib bormayapti.

Black-hat va white-hat terminlari

Qidiruv tarmoqlari optimizatsiyasi texnikalari ikki kategoriyaga bo'lingan: 1) qidiruv tarmoqlari tavsiya etuvchi ijobiy dizayn(white hat) va 2) qidiruv tarmoqlari ma'qullamaydigan salbiy yoki noto'g'ri texnikalar(black hat). Shuni ta'kidlash joizki, web saytingizda qidiruv tarmoqlari ma'qullamaydigan salbiy yoki noto'g'ri texnikalar(black hat)idan foydalanmaslik juda muhim sababi agar ulardan saytingizda foydalansangiz, qidiruv tarmoqlari saytingizni butunlay taqiqlab qo'yishi mumkin.

Black hat texnikasiga misol qilib, yashirin tekstlardan foydalanish, ta'qiqlangan tartibdagi linklarni qo'llash, web saytning bir nechta versiyalaridan qidiruv mexanizmlarida foydalanish kabilarni keltirish mumkin. Bunday hiylalardan foydalanib qidiruv tarmoqlari bilan o'ynashmaslik lozim. Bunday usul orqali muvaffaqiyat qozonish ehtimolligi juda past. Google markaziy webmasteri White hat texnikalari asosida faoliyat yuritish uchun juda ulkan manba hisoblanadi⁴.

Ijobiy SEO ning muhim elementlari.

Kalit so'zlar

⁴ (www.google.com/support/webmasters/bin/answer.py?hl=en&answer=35769).

Sayingizga tashrif buyuruvchilar auditoriya maqsadiga e'tibor qarating. Ular web saytingizdan qanday maqsadda foydalanishadi. So'ngra mijozlar sohangiz bo'yicha ma'lumot yoki mahsulotni izlashda qanday kalit so'zlar⁵dan foydalanishi mumkinligini o'ylab ko'rib aniqlang. Agar iste'molchilar qanday kalit so'zlarni qo'llashiga amin bo'lmasangiz unda Google sizga yordam berishi mumkin bo'lgan vosita Google da mavjud: <https://adwords.google.com/select/>



The image shows a comparison between Google AdWords and Facebook Ads. At the top, the logos for Google AdWords, V.S., and Facebook Ads are displayed. Below this is a table comparing various advertising channels and their capabilities.

Channel	Google	Facebook
Keywords	Yes	No
Likes	No	Yes
Demographics	Limited (Control Network)	Extensive, Accurate (Age, Location)
Psychographics (Interests)	No	Yes
Geo	Yes	Yes
Internal Destination URL	No	Yes
External Destination URL	Yes	Yes
Purchase Intent (Motivation)	Learn, Research	None
Sales Cycle	Short to Ready-to-Buy	Long

KeywordToolExternal

Content

Content to'g'risida ijobiy yangilik shuki agar siz yuqorida aytilganidek iste'molchilaringiz ehtiyojlarini ko'zda tutgan holda content tashkil etgan bo'lsangiz unda sizning web saytingiz kontenti allaqachon SEO talablariga mos ravishda tuzilgan.

Aynan mijozlar izlashayotgan kontentni tashkil qiling. Agar siz B&B(mehmonxona o'rni va nonushta) va ekskursiya xizmatini taklif etayotgan

⁵ (**Keywords**)

bo'lsangiz-u biroq tur firma web saytida buni aytib o'tmasangiz B&B va ekskursiya xizmatini izlayotgan iste'molchi sizni hech qachon qidiruv tarmog'ida topolmaydi.

Web saytingiz kontentini yozayotganingizda iste'molchilar foydalanishi mumkin bo'lgan tilda yozing va aynan ular qo'llashi mumkin bo'lgan so'zlarni qo'llang. Ba'zi kishilar hot tub terminini so'rovda qo'llashi mumkin biroq ba'zi mijozlar bu so'zni umuman ishlatmasligi uni o'rniga Jacuzzi atamasini qo'llashi mumkin shuning uchun har ikki toifadafi potensial mijozga ega bo'lishni istasangiz web sahifangizda har ikkala so'zni qo'llashga harakat qiling.

Web saytingizda sanoat jargonidan foydalanmaslikka harakat qiling, va mobodo siz millatlararo auditoriyaga murojaat etayotgan bo'lsangiz unda ularda bu so'z yoki termin qanday atalishini aniqlashga urining. Misol uchun agar siz Cariboo Chilcotin Coast⁶da Guest Ranch⁷ni boshqarsangiz va siz Avstraliyaliklar auditoriyasiga murojaat etmoqchi bo'lsangiz, unda Guest Ranch termini o'rniga Farmstays terminini qo'llashingiz kerak. Shu bilan birga Buyuk Britaniyaliklar auditoriyasiga murojaat etish maqsadida bo'lsangiz, unda Cowboy Ranches termini ishlatganingiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Sahifa sarlavhalari

SEO da web sahifa sarlavhalari muhim hisoblanadi. Ular qidiruv mexanizmlari algoritmlarida juda katta massani tashiydilar. Shuningdek, web sarlavhalar qidiruv natijalari ro'yxatida ham foydalaniladi. Sizning sarlavhangi sahifadagi contentni tasvirlagan holda bayon qilingan bo'lishi kerak. Agar sizning mehmonxonangizda dengiz mahsulotlari restorani mavjud bo'lsa, unda web sahifangiz sarlavhasini "Dengiz mahsulotlari restorani" deb nomlang.

⁶(Karib bo'yi qirg'oq atrofi)

⁷(rancho mehmonxona)

Rasmiy yoki noodatiy tildan foydalanib ovora bo'lmang, chunki mijozlar bunday narsalarni qidirishmaydi.

Meta teglaridan foydalaning.

Meta teglari HTML dasturlash tilida saytingiz kontentini tasvirlash uchun o'ylab topilgan. Web saytingizning har bir sahifasida bunday teglardan foydalanilgan bo'lsada, buni tashrif buyuruvchilar hech qachon ko'rishmaydi. Bu faqatgina qidiruv mexanizmlari uchun foydalaniladi. Meta teglarining qidiruv tarmoqlarida qanchalik katta massa sifatida uchrashi haqida ko'plab munozaralar mavjud. Ko'plab ekspertlarning fikricha esa ulardan foydalanishning ziyoni yo'q ekan.

Ikki turdagi meta teglari mavjud: tasvirlovchi va kalit so'zlar. Siz har ikkalasini ham web saytingiz CMS content menejment sistemasidan boshqara oladigan bo'lishingiz kerak. Tasvirlovchi meta teglar uchun sizning butun sahifangiz nima haqidaligi va kishilar sizning web sahifangizni topish uchun ko'proq qaysi so'zlardan foydalanishsa, o'shanday kalit so'zlar orqali tasvirlanishi lozim. Ta'sirni kuchaytirish uchun web sahifangizda qo'llangan kalit so'zlar bilan bir xil kalit so'zlardan foydalaning. Kalit so'z meta teglar bu shunchaki vergul bilan ajratilgan so'zlar ro'yxatidir. Eng muhim kalit so'zlar ro'yxati boshida keladi sababi qidiruv mexanizmlarida tartib shunday qabul qilingan.

Chin HTMLdan foydalaning

HTML deb veb-sahifalarni shakllantiruvchi kodlarga aytiladi. Bunda web saytingiz elementlarini to'g'ri ifodalash uchun maxsus teglardan foydalaniladi. HTML da sarlavhalarni belgilovchi <h1>dan <h5>gacha kodlar ierarxiyasi mavjud.

So'zlarni link sifatida qo'llash uchun, qalin shriftda yozish uchun va h.k lar uchun teglar mavjud.

Qidiruv mexanizmlari ba'zi elementlarga ko'proq ahamiyat beradi. Masalan, <h1> tegi orqali berilgan sarlavhaning massasi <h5>tegida yozilganga nisbatan ko'proq bo'ladi. Shuningdek, qalin shrift da yozilgan so'z yoki so'z brikmasi ham oddiy shriftda yozilgandan ko'ra muhimroq bo'ladi. Sizning web mutaxassisingiz web saytingiz CMS ida bunday teglardan o'rinli foydalanishi juda muhim. Misol uchun sahifaning bosh sarlavhasi <h1> tegi ichida berilishi kerak. Yaxshi web mutaxassis bu narsalarni biladi va tushunadi.

Web sahifa martabasi

Sizning web sahifangiz martabasi Googlening web sahifalari sizning saytingiz bilan necha marta ulanganligi soni bilan belgilanadi. Bu konsepsiya Pagerank deb ataladi va u Google ning ixtirochilari Larry Page va Sergey Brinnga multi milliard dollar keltirgan g'oya hisoblanadi. Aslini olganda, bu konsepsiya bo'yicha saytingizning har bir sahifasiga ulanishlar bu sizning web saytingiz uchun berilgan ovozdir. Qanchalik ko'p ovoz olar ekansiz sizning web saytingiz muhimlik darajasi shunchalik oshib boraveradi. Bu sizning web sahifangiz martabasidir. Agar sizning sahifangizga web sahifa martabasi yuqori bo'lgan sahifalar ulansa unda sizni Web sahifangiz martabasi ham tezroq yuqori ko'tariladi. Web sahifa martabasi yuqori bo'lganlar ular qo'llagan kalit so'zlar tufayli qidiruv tarmoqlarida yuqoriroq o'ringa chiqadilar. Bu esa, sizning web saytingizga va uning har bir web sahifasiga ko'proq ulanishlar olib keladi⁸.

⁸ (Batafsil ma'lumot www.google.com/webmasters/docs/search-engine-optimization-starter-guide.pdf da berilgan).

1.3 Online qidiruv tarmoqlari marketing imkoniyatlarini tur agentliklari web-saytlari uchun qo'llash

Qidiruv tarmoqlari marketingi bu web saytingizni qidiruv natijalarida ko'rinish imkonini oshirish maqsadida pulli o'rindan foydalanish imkoniyatidir. Bu go'yoki qidiruv tarmoqlarida ularning web saytini reklama qilishgani uchun haq to'lashga o'xshaydi. Kompaniyalar o'zlarining web saytlariga trafikni oshirish maqsadida qidiruv tarmoqlari marketing(SEM)dan foydalanishadi.

Qidiruv tarmoqlari marketingi qanday faoliyat olib boradi?

Har bir ulkan qidiruv tarmoqlari o'zining maxsus reklama platformasiga ega va ular katta kichik bo'lishiga qaramay bir xil tartibda ishlaydi. Bu o'z o'zidan ishlaydigan tizim bo'lib, sizdan faqatgina credit cartangiz raqami so'raladi xolos.

Reklama beruvchi sifatida siz maxsus kalit so'zlar va ularga mos reklama uchun maksimum narxda pul taklif qilasiz va SEM siz uchun ishga tushadi. Siz reklamalaringizni maxsus geografik hududga mos tartibda, yoki shahar atrofidagilar uchun muvofiqlashtirilgan tartibda tuzishingiz mumkin. Agar siz sizning mahsulotingizni ko'pchilik qay paytda izlashini bilsangiz reklamangizni maxsus kunlarda berishingiz hatto kunning maxsus soatlarida taqdim etishingiz mumkin. Bunda har bir narsa o'z o'lchoviga ega bo'lib bu haqida ko'plab batafsil maqolalar ham berib boriladi. Qachonchi birov qidiruv tarmoqlarida siz tanlagan kalit so'zlardan birini tersa, sizning reklamangiz ekranda aks etadi. Reklamaning bu turi har bir klik uchun to'lov⁹ deb ataladi va siz qachonki iste'molchilar sizning web saytingizga reklamangiz orqali tashrif buyurishsagina siz to'lashingiz kerak bo'ladi.

Sizning reklamangiz qanchalik tez-tez ekranga chiqyapti, natijalar sahifasining qayerida aks etyapti va siz qancha pul to'lashingiz kerakligi alohida

⁹ (pay-per-click [PPC])

algoritmlar asosida belgilab qo'yilgan. Google kompaniyasining shaxsan o'zi ham reklamalarning izlovchilar uchun maxsus bo'lishiga harakat qiladi, sababi rekalam beruvchilar bundan qanchalik yaxshi foyda ko'rishsa bunday marketingga ishonuvchilar ham oshadi hamda reklama berishning qiymati ham oshadi. Hisob kitobda ko'plab faktorlar hisobga olinadi, sizning reklama uchun maksimum taklif etgan summangiz, boshqalarning takliflari, sizning reklamangizning amal qilishi, va hattoki sizning web saytingiz ishga tushishi vaqti ham hisobga olinadi.

SEM imkoniyatlari

Qidiruv mexanizmlari marketing turistik tashkilotlarni internetda maxsus kalit so'zlarni terayotgan faol iste'molchilarga murojaat qilish va erishish va ularni bevosita sizning web saytingizga yo'naltirish uchun maxsus imkoniyatdir. SEM juda ham samarali marketing vositasi bo'lishi mumkin agar siz mashhur kalit so'zlardan foydalansangiz. Deyarli juda past narx evaziga siz yuqori darajadagi iste'molchilarni web saytingizga yo'naltirishingiz mumkin. Va agar web saytingiz potensial istemolchi xoxish istagiga mos kelsa, siz potensial istemolchini real iste'molchiga aylantirolgan bo'lasiz.

Qayerdan boshlash

Ortga nazar tashlang va sizning iste'molchilaringiz auditoriyasi maqsadlarini aniqlang, o'z maqsadlaringizni aniqlang va Qidiruv Tarmog'i Marketingi uchun mos kalit so'zlarni aniqlang. Agar siz SEO¹⁰(Qidiruv Tarmoqlari Optimizatsiyasi)da kalit so'zlarni qo'llashda ba'zi qiyinchiliklarga duch kelayotgan bo'lsangiz, SEM¹¹ (Qidiruv Tarmoqlari Marketingi) bu bo'shliqni to'ldira oladi. Agar sizda ma'lum bir shahar va bozor uchun maxsus taklif mavjud bo'lsa, siz o'sha shahardagilarni to'g'ri web saytingizga maxsus

¹⁰ Search Engine Optimization- Qidiruv Tarmoqlari Optimizatsiyasi

¹¹ Search Engine Marketing- Qidiruv Tarmoqlari Marketingi

SEM orqali yo'naltirishingiz mumkin. Agar siz kichik byudjet bilan ish yuritayotgan bo'lsangiz kalit so'z tanlashda ixtisoslashishingiz lozim. Masalan, agar sizning Nelson shahrida basseyn va mini golf kursi mavjud mehmonxonangiz bo'lsa, "Nelson mehmonxonasi" kabi kalit so'zni SEM da sotib olmaganingiz ma'qul. Sababi bu juda umumiy kalit so'z bo'lgani tufayli qiymat baholanishi biroq yuqori samara keltirmasligi mumkin.

Aksincha iste'molchilar nima izlashayotganliklariga e'tibor qarating shunda, "Nelson mehmonxonasida Oilaviy" yoki "Nelsonda basseynli mehmonxona" kabi kalit so'zlarni qo'llash mumkin. Shunda sizning reklama uchun to'lovingiz miqdori past va saytingizga tashrif buyuruvchilar soni yuqori bo'ladi.

Qidiruv tarmoqlari marketing dasturini boshqarish

Siz istalgan paytda har uchala qidiruv tarmoqlaridan ro'yxatdan o'tishingiz mumkin. Bunda faqat credit kartaga ehtiyoj sezasiz xolos. Shunda siz bir necha daqiqa ichida reklamangizga ega bo'lasiz va uni yurita boshlaysiz. Shuningdek soha bo'yicha amaliy tajribalarga ega bo'la olasiz.

Biroq yanada samarali ishlashning boshqa yo'llari ham mavjud. Ya'ni Google tarmog'idagi yangilik va texnologiyalar shunchalik tez o'zgarib turadiki, Google adwords platformasi bo'yicha kadrlarga maxsus sertifikatlar ham joriy etgan. Shunday ekan, agar turistik tashkilotingizning moliyaviy ahvoli imkon bersa, SEM bo'yicha mutaxassis yollashingiz yoki undan soha bo'yicha biroz o'rganishingiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Meta Qidiruv Tarmoqlari

Meta Qidiruv Tarmoqlari bu ko'p sonli turistik mahsulotlarni bronlash tizimlaridan yagona joyga birlashtiruvchi qidiruv mexanizmlaridir. Ularga misol tariqasida Bing Travel, Mombissimo va SideStep kabilarni keltirish mumkin. Kayak tarmo'gi esa bularning eng taniqlisidir. Google tarmog'i ham bu arenaga

qo'shilish maqsadida o'zining Google Flight qidiruv tarmog'ini AQShda ishga tushirdi.

Agar sizning mahsulotingiz yoki xizmatangiz bronlash tizimida mavjud bo'lsa, u holda bu Tovar yoki xizmatangiz avtomatik tarzda iste'molchilarga meta qidiruv tarmoqlarida ko'rinadi.

Web saytingiz uchun bronlash tizimini tanlayotganda, yoki biror bir online sayohat agentligidan ro'yxatdan o'tayotganda meta qidiruv tarmoqlari bilan integratsiyasi haqida so'rab o'tishingiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

II BOB. Sayyohlik sohasida Ijtimoiy Tarmoqlardan foydalanish

2.1 Ijtimoiy tarmoq web saytlaridan turizm sanoatida foydalanish

Bugungi kunda Ijtimoiy Tarmoqlar misli ko'rilmagan darajada miqdor jihatdan oshib ketdi va word of mouth kommunikatsiyasi darajasiga yetdi. Natijada esa tashkilotlar va marketologlar iste'molchilari o'rtasidagi muloqotlarni ortiq nazorat qila olmaydigan bo'lishdi. Ijtimoiy media ga juda ko'p ta'riflar keltirish mumkin, biroq shular orasidan eng qisqa va to'g'ri ta'rif quyidagicha: ijtimoiy media bu kishilarning on line muloqotga kirishish jarayonidir.

Muloqotlar bu insonlarga xos kommunikatsiyaning negizidir. O'rtacha iste'molchi maxsus brendlar haqida oilasi, do'stlari, va hamkasblari bilan haftasiga 90 marta suhbatlashar ekan. Internet orqali aloqa qilish insonlar kommunikatsiyasi revolyutsiyasiga sabab bo'ldi. O'tmishda biror kishi boshqa birov bilan kommunikatsiya qilishda telegramma yoki xatlardan foydalanishgan. Bu bir kishi yaqin atrofdagi boshqa birov bilan aloqasini ta'minlagan. Keyinchalik bir kishi ko'pchilik bilan muloqotga kirishishiga imkon beruvchi kommunikatsiya vositalari gazeta, radio, televizorlar ixtiro qilindi. Bu davrda bir kishi ko'pchilikka fikrini bayon etishi imkoni yaratildi. Telefonning ixtiro qilinishi esa ikki kishining yuzma-yuz ko'rishmay turib tezlik bilan suhbatlashish imkonini yuzaga keltirdi.

Ijtimoiy media esa ilk bora ko'pchilik ko'pchilik bilan qulay va bepul muloqot qilishiga imkon tug'dirdi. Natijada esa marketotologlar va biznesmenlarning tinchligiga putur yetkazildi. Ilgari mahsulotlar haqida mish-mishlar(word of mouth) oqimi sinf xonalari, barlar, sport stadionlari, offislar bilan cheklanardi. Endilikda, esa bu o'zaro suhbatlar on line sodir bo'lmoqda va bu suhbatlarga xoxlagan kishi aralashishi yoki shunchaki, kuzatishi mumkin.

Ijtimoiy Media misli ko'rilmagan darajada miqdor jihatdan oshib ketdi va word of mouth kommunikatsiyasi darajasiga yetdi. Buning oqibatida esa, tadbirkorlar va marketologlar iste'molchilari tomonidan ularga yo'naltirilgan xabarlarni ortiq nazorat tuta olmay qoldilar. Mijozlar Ijtimoiy Mediani hayratlanarli darajada quchoq ochib kutib olishdi. Biroq tadbirkorlar uchun yaxshi yangilik sifatida shuni keltirish mumkinki, ular ham bu suhbatga aralasha oladilar.

qanday baholash mumkin, bu dasturiy ta'minot o'tgan operatori yordamida.

10.Reklama

O'tgan operatori ularning taklif targ'ib qilish maqsadida ularning reklama siyosatini qurish uchun muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda, uning veb-sayti orqali bir necha elektron axborot byulletenlarini va reklama etarli emas - u erda juda ko'p saytlar edi va juda ko'p harflar xizmat sayohat agentligi, bir kun kelib. U juda qimmat, chunki matbuotda reklama haqida, biz, hech narsa demang va savdo ko'ra, tasvirni ko'proq ishlaydi. TURY.ru tizimi 120000 mehmonlarga sezilarli darajada bozor qamrovini oshirish va manfaatdor jamoatchilik katta raqamiga o'z takliflarini olib birdan beradi bir kun, kattaroq umumiy tomoshabin bilan Internetda turoperatorlar reklama platformalaridan xizmatlarni taklif etadi. Shunday qilib, dasturiy ta'minot tizimi, Taklif etilgan bu tizim TURY.ru turoperatorlar, deyarli barcha biznes-jarayonlarini o'z ichiga oladi - amalga oshirish bosqichlari uchun tariflarni tuzish dan. Barcha dasturiy ta'minot ularning orasidagi turli tuzilmalari hamkorligini osonlashtiradi, deb bir-biriga bo'lgan. Barcha jarayonlar avtomatlashtirilgan va qo'lda mehnat faoliyatini yaxshilaydi va yuk bartaraf minimal, pasaytirildi. Turoperatorlar va turagentlar uchun TURY.ru tizimi tomonidan Software tizimlari, quyidagi afzalliklarga ega:

1. Tez o'rnatish .
2. Aloqa sifati.
3. O'rtacha baho.
4. Oliy samaradorligi.

Avtomatlashtirish Bizning dastur moslashuvchan va foydalanishga yoki butun dasturiy ta'minot tizimi beradi, yoki ularning qismlari, kompaniya ushbu bosqichda zarur. Foydalanish va o'rtacha narxi qulaylik bizning dasturiy ta'minot ishingiz uchun samarali vosita hisoblanadi qiling.

3.2 O'zbekiston turistik tashkilotlarini milliy portal ostida birlashtirish.

Sir emaski, turistik sanoatdagi ko'pgina faoliyatlar on line tarzda amalga oshiriladi. Shunday ekan, sohada ijobiy natijalarga erishish uchun turistik tashkilotlar orasida yetakchi o'rin egallash lozim. Buning uchun esa, yangi innnovatsion texnika va texnologiyalardan muntazam foydalanib borish ayni zamon talabiga aylanib ulgurdi.

Internet marketingi hozirgi kundagi ilg'or texnologiyalardan biri ekanligi barchaga ma'lum. Yurtimiz turizmida shu soha yutuqlarini qo'llash esa, nafaqat sohada faoliyat ko'rsatayotganlarga daromad keltiradi, balki soha rivojiga hissa qo'shgan holda yurtimizga tashrif buyuruvchilar oqimini kuchaytirib, sohada ishchi kuchiga talabni oshiradi va mintaqadagi ish bilan bandlik bo'yicha muammolarni kamayishiga hissa qo'shadi.

Hozirda yurtimizda 200dan ortiq turistik tashkilotlar faoliyat olib borishmoqda. Tabiiyki, ularning deyarli barchasi o'z faoliyati jarayonida internet tarmog'idan foydalanadi. Ya'ni turistik tashkilotlar(Mehmonxona, restoran, tur operator, tur agentliklar va h.k.)ning ko'pchiligi mijozlarga o'z mahsulotlarini tanishtirish hamda sotish jarayonida o'z web saytlaridan foydalanishadi. Bu esa, ular uchun anchagina xarajatga tushishi aniq albatta. Undan tashqari bu jarayonda turistik tashkilotlar o'zlariga o'xshash turistik korxonalar bilan raqobatga kirishishlari ham aniq. Biroq, iqtisodiyotda katta baliqlar kichkinalarni yeydi degan atama mavjud. Yana shuni ta'kidlash lozimki, xorijiy potensial turist internet tarmog'ida sayohat qilish uchun destinatsiya tanlash jarayonida qidiruv tarmog'ida eng birinchi uchragan mashhur va ishonchli tur firmalar xizmatidan foydalanish

Web-sayt odatda onlayn marketing faoliyati flagmani hisoblanadi. Sizning web saytingiz, ilhom berish, ma'lumot berish va / yoki sotib olish jarayonini amalga oshirishi kerak. Umuman olganda, sizning web-saytingiz avvaliga foydalanuvchilarga ilhom baxsh etishi, o'rta bosqichda ma'lumot berishi va

so'nggi bosqichda sotuv jarayonini amalga oshirishi lozim. Ba'zan bu harakat onlayn sodir bo'ladi, lekin ko'pincha bu jarayon kimningdir eshikdan eshikkacha yetib borishiga olib keladi.

Bugungi kunda, iste'molchilar sizning biznesingiz va mahsulotingiz haqida bilish uchun tezlik bilan sizning web saytingizga tashrif buyurishadi. Sifatli tashkil etilmagan website potentsial mijozda qoniqarsiz taassurot qoldiradi va sizning mahsulotingizdan tezda yuz o'girishiga olib keladi. Yomon web sayt firmani hatto online bozorda kasodga uchratishi mumkin. Ko'pgina turizm operatorlari juda yaxshi mahsulotlar yaratishmoqda, biroq ular baribir mijozlarini yo'qotishmoqda chunki ular potentsial mahsulotga jiddiy e'tibor qaratishyapti yu lekin potentsial web saytlariga jiddiy yondashishmayapti.

Zotan, agar bir tur firma o'z web saytiga ega bo'lsayu biroq kutilgan natijaga erishmayotgan bo'lsa, ehtimol firma saytini modernizatsiya qilishning vaqti kelgandir. Quyidagi ketma ketlikda yoki biror bir professional web dizayner yordami bilan siz web saytingizni rivojlantirishingiz mumkin.

O'z fikringizga emas iste'molchi xoxishiga e'tibor qarating

Shuni yodda tutingki web sayt tayyorlashda va uni yuritishda asosiy narsa bu iste'molchi nuqtai nazariga etibor qaratishdir. Agar sizning web saytingiz online tashrif buyuruvchilaringiz qidirayotgan narsani taqdim etmasa siz online tashrif buyuruvchilarni real tashrif buyuruvchilarga aylantirish imkonini xavf ostiga qo'ygan bo'lasiz. Bunda, shunchaki rejalashtirishda yoki mahsulot haqida ma'lumot berishda yoki faoliyatning biror qismida tushunarsizlik bo'lishi mumkin.

Asosiysi sizning saytingizga tashrif buyuruvchi sizning istemolchingizga aylanishini istasangiz shaxsiy fikr va munosabatlaringizdan qochib, professional web mutaxassislar ko'rsatmalari bo'yicha ish tuting va iste'molchilaringiz ehtiyojlarini hisobga olib ish tuting ana shunda investitsiyangiz eng yaxshi natijalarni keltira boshlaydi.

Online Marketologlar uchun web saytga maqsad qo'yish bir muammo bo'lsa, boshqa bir to'siqlardan biri bu noto'g'ri o'rinda ish olib borishdir. Ya'ni siz saytingizga qancha content tashrif buyurishidan ko'ra sizning web saytingiz qanday ma'lumotlarni taqdim etishi kerakligini bilish ancha qiyin muammodir. Quyida keltirilgan jarayon professional web mutaxassis yordamida ideal web sayt yaratish va ijobiy natijalarga erishishingizga yordam beradi.

Web sayt maqsad va strategiyalari

Web saytingiz auditoriyasi xoxishlariga etibor qarating va o'zingizning web saytdan ko'zlagan maqsadlaringizga e'tibor qarating hamda shu larga asoslanib web saytingiz umumiy marketing planini strategic maqsadlarini belgilang. Shuningdek, sotuvlar sizning web saytingiz orqali to'g'ridan-to'g'ri amalga oshadimi yoki yo'qmi bu ham sizning potentsial iste'molchilaringiz qaror qabul qilishida muhim unsur sanaladi.

Kontent

Kontent strategiyasi bilan boshlang. Kontent veb-saytingizda mavjud barcha ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Ma'lumotlar deganda so'zlar, tasvirlar, videolar, xaritalar va hokazolar tushuniladi. Siz web saytingizga tashrif buyuruvchilar qachon va anima maqsadda tashrif buyurishlarini bilishingiz bilan o'z saytingiz xaritasini tuza boshlaysiz. Sababi, bu sayt xaritasi iste'molchilarga saytingizdan foydalanishda ancha qulayliklar yaratib beradi.

Mijozlaringiz saytingizga tashrif buyurishganda biroz ilhomlanishi hamda ta'sirlanishi shart. Buning uchun siz brendingga logotip ga firma nomi ning jarangdorligidan tashqari saytingizga joylashtirayotgan kontentingiz ta'sirchanligiga jiddiy e'tibor qaratishingiz lozim.

Bunda, saytga chiroyli tasvirlar, videolar joylashtirishingiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Kontentni ta'sirchan tashkil etishingiz saytga tashrif

buyuruvchilarni firma yoki taklif etilayotgan ma'lum bir turistik dasturga qiziqib qolishiga ko'proq ma'lumot olishga harakat qilishiga, va sayohat qilmoqchi bo'lgan DSJ lari qatoriga qo'shib qo'yishlariga olib keladi.

Tur firmangiz web saytiga ijtimoiy tarmoqlarni ham content sifatida qo'shib qo'ying. Bu faoliyatingiz potensial mijozlarni o'zlaridan avval tashrif buyurgan turistlarni firmangiz haqidagi bildirgan fikr va baho(reyting)lari bilan tanishishlari imkonini beradi va sizga hamda sizning tur firmangizga bo'lgan ishonchni kuchaytiradi. Shuningdek, siz mijozlarning kommentariy lariga javob yozishingiz sizning virtual olamda ham mas'uliyatli ekanligingizni bildiradi.

You tube yoki boshqa ijtimoiy saytlar, blogglar haqida o'ylab ko'ring. Ulardan turistik biznesingizni rivojlantiruvchi vosita sifatida foydalaning.

Sayingizga tashrif buyuruvchilar tashrif buyurishidan oldin ular qanday ma'lumotlarga ehtiyoj sezishlari haqidagi ro'yxatni tuzing. Buning uchun yetarlicha vaqt ajrating chunki bu juda muhim. Raqobatchilar va sizning biznesingizga o'xshash bizneslar bo'yicha tadqiqot olib boring. Ular qanday ma'lumotlarni jamlashgan hamda bu ma'lumotlarni qanday taqdim etishayotganliklari o'rganing.

Web sayingiz kontentini to'plaganingizdan so'nggina siz web sayt contentini tuza boshlaysiz.siz buyurtma bergan web dizaynerlar shunchaki siz taqdim etgan informatsiyani saytga kiritishadi xolos biroq ular sizning biznesingizni siz bilgan chalik bilishmaydi.

Sayingizni to'liqligicha web mutaxassislar tuzib bo'lishmagunga qadar, odatiy usulda ma'lumotlarni kirita olmaysiz. Bunda SEO Qidiruv Tarmoqlari Optimizatsiyasi nuqtai nazaridan ham web sayt kontentini maxsus mutaxassislar kiritishgani ma'qul. Sababi ular SEO dan qanday foydalanishni hamda tayyor ma'lumotni mijozga qay yo'sinda taqdim etish bo'yicha sizdan ko'ra ko'proq bilimga ega bo'lishadi. Shu nuqtai nazarda olinganda web sayt tashkil etish professionallar yordamiga tayanish bu yaxshi investitsiya hisoblanadi.

Samaradorlik

Siz veb-saytingizda qanday kontentdan foydalanmoqchi ekanligingizni bilgach, bu informatsiyani web saytingizga tashrif buyuruvchilar uchun topish oson qilib tashkil etishingiz kerak bo'ladi. Bunda, web saytning har bir web sahifalari information arxitektura zanjirida tashkil etiladi va zamonaviy tez yuklanadigan dasturlash tillarida yozilgan interfaol dizayn asosida tashkil etiladi.

Bu jarayonning bir qismi, shuningdek, web-saytida muhtoj aniq funksiyalarini aniqlab olish hisoblanadi. Agar siz kontent ehtiyojlarini bir qismi sifatida, voqea-hodisalar taqvimini, foto galereyasi, videolar, yoki bir bron tizimini belgilab qo'ygan bo'lsangiz, siz jarayonning bu bosqichida ularni web saytingizning qayerida qanday mos tushishiga qaror qilishingiz kerak

Web-saytingizni oddiy qiling. O'ziga xos yagona, noyob narsa qilishga urinmang.

Saytga tashrif buyuruvchi iste'molchilar odatda bir necha soat vaqtlarini saytlar qanday tuzilganligi ularda ma'lumotlar qanday darajalanganligi va odatda qayerda joylashishini o'rganishadi. Tur firma web saytini boshqa tur operatorlar qay tartibda tuzishsa o'sha tartibda tuzing. Ma'lumotlarni ham boshqalar qayerda joylashtirsa o'sha yerda joylashtiring. Odamlarni web-saytingizda siz qo'llagan murakkab o'ziga xos, web sayt strukturasini o'rganishga yoki tushunib yetishga vaqtlari ham xoxishi ham yo'q.

Bunda, albatta, bir professional web mutaxassis yordamidan foydalanish ijobiy samara beradi. Shuningdek, web professionallar web saytdan foydalanishga aloqador ko'pgina ustunliklarni yaratib bera oladilar. Yaxshi veb-professionallar birinchi navbatda, axborot arxitekturasini (va kattaroq web-saytlar uchun **wireframe** ya'ni qo'shimcha linklarni) yaratadi. Qo'shimcha linklar web sayt strukturasida qoralama skelet hisoblanadi. Ular saytning har bir betini bog'lash funksiyasidan tashqari, mijozni zerikarli kutishlardan xalos etadi.

Sababi bunday tarkibga ega web sayt keyingi sahifaga o'tish jarayonini ortiqcha kutishlarsiz bajaradi.

Samaradorlik testingi

O'z biznesining bir qismi sifatida web saytdan foydalanuvchi firmalar uchun saytida (wireframe)qo'shimcha linklarni qo'llash juda foydali hisoblanadi. Sababi, yuqorida aytilganidek bunday linklar mantiqiy jihatdan mijozlar so'rovda qo'llash ehtimolligi yuqori bo'lgan turli kalit so'zlar bilan nomlanadi. Iste'molchilar qidiruv saytlarida ushbu kalit so'z yoki iboralarni so'rov sifatida yuborishadi va siz nomlagan o'sha web sahifa wireframega duch kelishadi. Siz saytingizni dastlab tashkil etayotganligingizda buni narsani tuzib qo'yishingiz va xoxlagan paytda unga osonlik bilan o'zgartirish kirgizishingiz mumkin. Biroq saytingiz allaqachon tuzib chiqilgan bo'lsayu unda qo'shimcha linklarni qo'llanmagan bo'lsa buni tashkil etish ancha qimmatga tushadi.

Web sayt dizayni

Agar siz web-saytingizda chop etish uchun qanday ma'lumotlar kerak bo'lishini va uni qanday content sifatida tashkil qilishni bilib olgan bo'lsangiz, unda web saytning dizayn ko'rinishini yaratishni boshlashingiz mumkin. Web saytning professional ko'rinishi turistik tashkilotingizning investitsion imidji uchun juda muhim sanaladi. Agar sizning firmangiz web sayti havaskorlarning web saytiga o'xshasa, saytingizga tashrif buyuruvchilarda tur firmangiz ham havaskorlar jamoasidan tuzilgan degan taassurotni qoldiradi.

Odatda Web sayt dizayni biznes vakillari uchun eng muhim jihat hisoblanadi shuning uchun ham web dizaynerlar va saytga buyurtma beruvchilar bu masalada tez tez ziddiyatga borib turishadi. Web saytning ijobiy sizning sohangiz bozori talablariga mos bo'lishi uchun buyurtmani bajaruvchi web dizaynerlarning siz qanday web sayt dizaynini xoxlashingiz sohangiz nuqtai nazaridan ma'lumotlarni iste'molchilarga qay yo'sinda taqdim etish lozimligini

tushunib ishlashi muhimdir. Web sayt dizayni web dizayner hamda turistik xodim hamkorligida ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Odatda, web dizaynerlar buyurtma berilgan web saytning bir oki ikki web sahifasi uchun maket tayyorlab buyurmachiga taqdim etishadi. So'ng buyurtmachining fikr va mulohazalarini tinglab unga yoqqan dizayn maketini takomillashtira boshlashadi. Ular sizga ma'qul kelgan qismlarni qoldirib keraksiz unsurlarni olib tashlashadi. Biroq siz web saytingiz ommabop bo'lishini xoxlasangiz sayt dizaynini o'z qarashlaringiz asosida emas balki mijoz nuqtai nazaridan tarkib topishiga, ahamiyat bering. Mijoz internetda izlayotgan narsasini sizning firmangiz web saytida topa olishiga e'tibor qarating.

Veb-sayt dizayni veb-dizayner va biznes egasi o'rtasida eng tanglikni yaratadi ko'pincha nima tadbirkorlar tez-tez haqida eng g'amxo'rlik va bo'ladi. Qadamlar yuqorida ergashgan bo'lsa, bu buzilish oldini olish mumkin va dizayn jarayoni axborot oqib kerak va u ijobiy mehmon tajribasi yaratish maqsadida istiqomat kerak qaerda qanday, boshlanadi oldin har ikkala siz va sizning dizayner, aniq, tushunish. Sizning dizayner stolga olib ko'nikmalarini hurmat va narsalar yo'li aniq bo'lganda faqat qadam. O'z tajribasi va aql-idrokiga suyanib. Veb-sayti buning uchun yaxshiroq bo'ladi!

Dizaynerlar tez-tez sharhlab uchun veb-sayti uchun bir yoki ikki-sahifalar uchun soxta-ups yaratish va fikringizni asosida tozalayman. Ular boshqa barcha sahifalarni go'sht oldin ular siz veb-sayt dizayni bilan baxtli bir nuqtaga olish, bu jarayonni foydalanadi. Sizning mehmondan poyabzal o'zingizni qo'yib, veb-saytingiz maqsad haqida o'ylab, va bu haqida fikringizni e'tibor. Agar siz mijoz birinchi izlab qilinadi tushunish ma'lumotlarga egami?

Axborot ierarxiyasi va navigatsiya qulayligi muhim ahamiyat kasb etadi. Web saytdagi tasvirlar aniq mahsulot yoki tajribani aks ettirilganmi? Ular tinglovchilarni ilhomlantiradi oladimi, yoki tasvirlar potensial turistlar ehtiyojlarini amaliy jihatdan mos keladimi? Bu talablarning har ikkalasiga mos

bo'lgan ma'lumotlarni yetkazish ya'ni mijozni ham e'tiborini jalb etadigan hamda bir vaqtning o'zida amaliy ma'lumotlarni jamlagan tasvir va roliklar tur firmaning brendini yuqoriga ko'tara oladi. Nihoyat shuni ham yodda tutish kerakki, saytingizga tashrif buyuruvchilarning kata qismi mobil qurilmalardan foydalanadi, shuning uchun web saytning odatiy nusxasidan tashqari mobil versiyasini ham tashkil etish kerak.

Texnologiya va vazifalari

Xuddi web sayt dizayniga o'xshab web saytda qanday texnologiya qo'llashni ham web mutaxassisga ishonishingiz kerak. Bunda siz web mutaxassis bilan quyidagi o'ta muhim jihatlarni kelishib olishingiz lozim:

1. Saytda ommabop ya'ni hozirda ko'pchilik tomonidan qo'llanadigan texnologiyadan foydalanilishi bo'yicha;
2. Siz web saytingizda foydalanayotgan texnologiya va saytingiz joylashgan hosting uchun yillik to'lov summasi bilan tanishish va tasdiqlash yuzasidan;
3. Sizning web mutaxassisingiz sizni va sizning jamoangizni CMS (Contentni boshqarish tizimi) dan qanday foydalanishni o'rgatib borishi haqida;

Hosting

Web sayt hostingi bu sizning web saytingizning jismonan web serwerda joylashishidir. Ko'pchilik tur operatorlar web sayti web sayt hostingiga ixtisoslash kompaniyalarning maxsus tarmog'i xotirasida joylashtiriladi. Tur firma serwerdan saytini joylashtirish uchun serwer xotirasidan kerakli hamdagi xotirani yillik bron qiladi. Hosting xizmatidan foydalanar ekansiz, hech qanday xavfsizlik tizimi, yangilanishlar, va hokazo texnologik detallardan xavotirlanmasligingiz mumkin. Sababi, bularning barchasi siz xizmatidan foydalanadigan kompaniyaning vazifasiga kiradi.

Web sayt hosting hozirda juda ommaboplashgan va odatda uning to'lov stavkasi kichik hamda o'rta turistik tashkilotlar uchun yillik bir necha yuz AQSh dollaridan oshmaydi.

Kontent boshqaruv tizimi

Sizning Web mutaxassisingiz web-sayt yaratish uchun Kontent boshqaruv tizimi (CMS)ni yaratib berishi lozim. Kontent boshqaruv tizimi (CMS) bu siz web saytingiz kontentini kiritishda hech qanday dasturlash tili kodlaridan foydalanmagan holda ham sayt kontentiga o'zgartirish imkonini beruvchi sistemadir. Bu tizimning afzalligi shundaki, endilikda siz har safar web saytdagi ma'lumotlarga o'zgartirish kerak bo'lganda, web dizaynerning pullik xizmatidan foydalanishga majbur bo'lmaysiz.

Web dizayner sizga matn, tasvir, video va boshqa turdagi fayllar uchun maxsus blanklarni yaratib beradi va siz barcha sahifalardagi contentga shaxsan o'zingiz ma'lumot kiritishingiz, o'zgartirishingiz yoki o'chirib tashlashingiz mumkin bo'ladi.

Veb-saytingiz kontentini yuritish bir Microsoft Word faylidan foydalanish kabi soda ya'ni tushunish va foydalanishga qulay bo'lishi lozim.

Web dizayner sizga va sizning xodimlaringizga smetasining bir qismi sifatida CMSdan qanday foydalanish kerakligini o'rgatishiga ishonch hosil qiling.

Web saytingiz uchun qanday tizim eng yaxshi tizim ekanligi bu sizning web saytingiz o'ziga xosliklariga bog'liq. Sizning ehtiyojlaringizdan kelib chiqqan holda, web mutaxassislar sizga qanday CMS dan foydalanishni tavsiya etishadi. Biroq, sizga tavsiya etishgan CMS tizimlarining ommabopligini tekshirib, amin bo'ling.

Hozirgi paytda bunday tizimlar juda ko'p va ko'pchiligi bepul. Misol tariqasida Wordpress va Drupal kabi tizimlarni keltirish mumkin. Biroq siz

o'ziga xos maxsus qulayliklarga ega pulli tizimlarni ham tanlashingiz mumkin bu sizning web saytingiz xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Ijtimoiy tarmoqlar

Tur firmangizning online mavjudligi web saytingiz doirasida yoyiladi. Sizning biznesingiz TripAdvisor, Yelp va boshqa shunga o'xshash reyting web saytlari ro'yxatida bo'ladi. Undan tashqari, firmangizning Facebook.com saytida maxsus sahifasi, Twitter.com da profile mavjud bo'lishi mumkin.

Shuning uchun sizning web saytingiz sizning tur firmangiz bilan bog'liq barcha narsani online kafolatlashi kerak. Barcha gigant ijtimoiy tarmoq saytlari(quyida sanab o'tilganlar ham), sizga firmangiz haqida bildirilgan fikr mulohazalar, kommentariylar, reytinglar haqidagi ma'lumotlarni osonlik bilan o'z web saytingizga kiritish imkonini beradi.

Ijtimoiy tarmoq saytlari shuningdek, iste'molchilar o'rtasida qulay baham ko'rishga(suratlar, video fayllar) imkon yaratadi. Tweet Button, Facebook like, Google +1 kabi ijtimoiy tarmoqlardagi tugmachalar sizga iste'molchilaringizga (va ular ham do'stlariga bu ma'lumotlarni yetkazishlari mumkin) qulay tarzda ma'lumot yetkazib funksiyasini bajaradi.

e-Tijorat Texnologiyasi

Onlayn bronlarni qabul qila olish imkoni bu jiddiy narsa. Agar sizning iste'molchilaringiz sizning web saytingizdan marketingning xarid qilish fazasida foydalanishsa bu amalga oshirilishi zarur jaryondir. Shuningdek, sizning mijozlaringiz sizning mahsulotingizni xarid qilishda internetdan yoki sizning web saytingizdan foydalanishmasa bu unchalik ham muhim bo'lmagan va sizga unchalik foyda keltirmaydigan investitsiyadir.

Hozirgi kunda online bronlashga imkon yaratuvchi juda ko'p tizimlar mavjud. Ularning ko'pchiligi joylashtirish sektori, turizm va xizmatlar sektori va restoran sektoriga xizmat qilish uchun barpo etilgan.

Agar siz bronlash xizmatini taklif etuvchi va bilet beruvchi sistema yordamida faoliyat olib bormoqchi bo'lsangiz, unda sizning mijozlaringiz siz bilan jismonan uchrashishiga talabni keltirib chiqaradi. Aks holda siz ham mavjud texnologiyalar bilan integratsiya yoki / ma'lumotlarni eksport va import qilish uchun imkon beradigan texnologiyani tanlashingiz kerak.

Agar siz tur firmangiz uchun bunday tizimni hali tashkil etmagan yoki mavjudini boshqasiga almashtirmoqchi bo'lsangiz electron dasturini bronlash servisi sifatida taklif etuvchilar (software as a service (SaaS)) haqida o'ylab ko'ring.

Bunday xizmat ko'rsatuvchilarga misol qilib Google mail, Hotmail, va Facebook ni keltirish mumkin. SaaS mahsulotining afzalligi talay bo'lib, siz hech qanday programmani sotib olish va ishga tushirishingizga hojat yo'q. Aksincha, texnologiyani online ishga tushirishingiz mumkin. Bunday SaaS bronlash tizimlarining ko'pchiligi oylik to'lov, yoki har bir bronlashdan foiz olish tartibiga asoslanadi.

Olimlarning ta'kidlashicha, mobil vositalardan foydalanuvchilar soni kundan-kunga oshib borayotgan ekan, shuningdek mobil vositalardan internetga ulanuvchilar ham tobora ko'paymoqda. Marketologlarning tasdiqlashicha esa, yaqin orada mobil qurilmalar (smartfon, planshet, ipod va h.k.) sotuvi soni kompyuterlar sotuvini ortda qoldirar ekan.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, internet marketingning kelajagi mobil qurilmalarga ixtisoslashadi.

Bu smartfon va boshqa mobil qurilmalar tezlik bilan o'sib borayotgan mobil saytlar va dasturlar uchun foydalaniladi. www.mtld.mobi saytining tadqiqotlari xulosasiga ko'ra, mobil saytlar soni 2008 va 2010 yillar oralig'ida 150 000 dan uch millionga ko'tarilgan. O'sish sur'ati 2000%. Xuddi shu davr oralig'ida mobil operatsion sistemalarda ishlaydigan mobil dasturlar soni ham keskin oshib ketgan. Masalan, Apple korporatsiyasining iPhone App Store

sayti(online do'koni)da IOS sistemasida ishlovchi dasturlar soni 0 dan 300 ming tagacha o'sgan. Googlening Android Market saytida esa android operatsion tizimida ishlovchi mobil qurilmalar uchun dasturlar soni 0 dan 130 mingdan ziyodgacha(ma'lumot www.report.distimo.com saytidan olingan) ko'tarilgan. Shunday ekan, turistik tashkilotingizning web sayti mobil versiyada ham mavjud bo'lishi juda muhim, zero iste'molchilar sayohat yuzasidan hal qiluvchi qarorni mobil vositalari orqali online belgilashlari mumkin.

Android va iPhone kabi zamonaviy telefonlarning ekrani sizning web saytingizni nafis ko'rinishda aks ettiradi. Ekran kichik hajmda bo'lsada bu iste'molchilar uchun muammo bo'lmaydi. Sizning web saytingiz murakkab funksiyalarga va kata hajmdagi kontentga ega bo'lishi mumkin, biroq har qanday holatda ham siz iste'molchilar ehtiyojidan kelib chiqqan holda saytning mobil versiyasini tashkil etishingiz kerak. Bunda mobil vositalardan foydalanuvchilar xoxish-istagiga ko'ra maxsus content tuziladi va maxsus funksiyalargina saqlab qolinadi.

Turistik tashkilotingiz web saytining mobil versiyasini yaratmoqchi bo'lsangiz web dasturlovchiga biroz qo'shimcha haq to'laysiz, va u sizga mobil versiya uchun yana bir nechta maxsus web sahifalarni tuzib beradi. Xuddi shunday, zamonaviy CMS content boshqaruv tizimlarining ko'pchiligi web saytning mobil versiyasini yaratish va boshqarish imkonini beradi.

Standartga muvofiqlik va analizlar

Bugungi kunda web saytlar uchun tashqaridan turib saytni analiz qiluvchi host dasturlar mavjud. Ular tashkilotingiz web saytini ma'lum standartlar asosida tekshirib, tahlil qilishadi hamda sizning web saytingizda kuzatilgan kamchilik yoki mavjud bo'lmagan detallarni aniqlashda sizga kata yordam beradi. Google analytics shulardan biridir. Bu dasturni o'rnatish bepul va dasturni o'rnatish ham oson bo'lib, web saytlarning 99%ini kerakli ma'lumotlar

bilan ta'minlaydi. Faoliyatning Kalit Indikatori web saytingiz maqsadlariga muvofiq belgilangan bo'lishi lozim.

✓ Agar web saytingiz maqsadi bronlash bo'lsa, unda siz bronlar sonini indicator sifatida belgilaysiz.

✓ Agar web saytingiz maqsadi ma'lumot berish bo'lsa, unda siz ko'rilgan web sahifalar sonini va web saytingizda sarflangan vaqtni indicator sifatida belgilaysiz.

✓ Agar web saytingiz maqsadi ilhomlantirish bo'lsa, unda siz web saytingizda sarflangan vaqtni va tomosha qilingan videolar sonini indicator sifatida belgilaysiz.

Dastlabki standartlar yutug'ini sezishingiz bilan ma'lumotlarni yanada yaxshilash uchun boshqa tahlil nuqtalaridan foydalaning.

Iste'molchilar web saytingizni bronlashtirishning maxsus nuqtasida tark etishmayaptimi?

Samaradorlik muammosi indicator bo'lishi mumkin.

Sayt sahifalarida iste'molchilar qancha vaqtini sarflashyapti?

Bu content sifati indikatori bo'lishi mumkin.

Iste'molchilarning qancha qismi web saytingizning bir sahifasidan boshqasiga o'tishmoqda?

Bu web saytingizning dastlabki taassurot qoldirishi indikatori tufayli, sababi bir web sahifadan ijobiy taassurot olgan mijozgina boshqa sahifaga o'tishni lozim topadi.

Web standartlar web saytingizda nima yaxshi ishlayapti yoki nima ishlamayotganligini aniqlashda juda kuchli vosita hisoblanadi. Biroq bunday tahlil jarayonida tez xulosa chiqarmaslikka ogoh bo'ling. Agar kimdir web

saytingizni e'tiborsiz tark etsa, bunda juda ko'p potensial sabablar bo'lishi mumkin. Kam miqdordagi istemolchilar reaksiyalari asosida samaradorlik testini o'tkazish sizning biznesingiz uchun foydali ma'lumotni taqdim etolmasligi mumkin.

Tashkilotingiz web sayti qanchalik yaxshi faoliyat ko'rsatayotganligini aniqlashning yana bir yana bir samarali yo'li usertesting.com web sayti xizmatidan foydalanishdir. Bu xizmat web saytingizda samaradorlik testi o'tkazishning samarali vositasi bo'lib, u real insonlarga maxsus topshiriqlar berish usulida bajariladi. Misol uchun topshiriq saytingizdan foydalanib yuvinish xonasi bor ikki kishilik xona topish va bron qilish bo'lishi mumkin. Xizmat bir qancha kishini siz uchun jalb qiladi va ularning sizning web saytingizdan foydalanish jarayonlarining ovozli video faylini yuboradi.

Xulosa.

Internet dunyoning barcha mamlakati aholisi va korxonalarini virtual bog'lash imkonini bermiqda. Bugungi kunda xalqaro tarmoqqa har kuni 1 mlrd dan ortiq kishi ulanadi. Bu esa, internet tarmog'ining qolgan barcha media vositalariga nisbatan katta ustunlikka erishganligini ko'rsatadi.

Olimlarning ta'kidlashicha, mobil vositalardan foydalanuvchilar soni kundan-kunga oshib borayotgan ekan, shuningdek mobil vositalardan internetga ulanuvchilar ham tobora ko'paymoqda. Marketologlarning tasdiqlashicha esa, yaqin orada mobil qurilmalar (samartfon, planshet, ipod va h.k.) sotuvi soni kompyuterlar sotuvini ortda qoldirar ekan.

Web standartlar web saytingizda nima yaxshi ishlayapti yoki nima ishlamayotganligini aniqlashda juda kuchli vosita hisoblanadi. Biroq bunday tahlil jarayonida tez xulosa chiqarmaslikka ogoh bo'ling. Agar kimdir web saytingizni e'tiborsiz tark etsa, bunda juda ko'p potensial sabablar bo'lishi mumkin. Kam miqdordagi istemolchilar reaksiyalari asosida samaradorlik testini o'tkazish sizning biznesingiz uchun foydali ma'lumotni taqdim etolmasligi mumkin.

Youtube.com ijtimoiy tarmo'g'i orqali individual shaxslar va tashkilotlar 15 daqiqagacha davomiylikdagi video fayllarni almashishlari mumkin. Bunday contentni tarmoqqa kiritish bepul hamda linkni ulashish ham juda oson. Foydalanuvchilar video fayllarga fikr-mulohazalarini yozib qoldirishlari va do'stlari bilan baham ko'rishlari mumkin. Suratga olinishi mumkin bo'lgan kontentning ko'pgina turlari mavjud. Biroq turistik tashkilotlar uchun turistlar sizning destinatsiyangizga tashrif buyurishganda qanday mashg'ulot bilan band bo'lishlarini namoyish etish eng maqbuli hisoblanadi.

Agar siz bronlash xizmatini taklif etuvchi va bilet beruvchi sistema yordamida faoliyat olib bormoqchi bo'lsangiz, unda sizning mijozlaringiz siz bilan jismonan uchrashishiga talabni keltirib chiqaradi. Aks holda siz ham mavjud texnologiyalar bilan integratsiya yoki / ma'lumotlarni eksport va import qilish uchun imkon beradigan texnologiyani tanlashingiz kerak.

Agar siz tur firmangiz uchun bunday tizimni hali tashkil etmagan yoki mavjudini boshqasiga almashtirmoqchi bo'lsangiz electron dasturini bronlash servisi sifatida taklif etuvchilar(software as a service (SaaS)) haqida o'ylab ko'ring.

Bunday xizmat ko'rsatuvchilarga misol qilib Google mail, Hotmail, va Facebook ni keltirish mumkin. SaaS mahsulotining afzalligi talay bo'lib, siz hech qanday programmani sotib olish va ishga tushirishingizga hojat yo'q. Aksincha, texnologiyani online ishga tushirishingiz mumkin. Bunday SaaS bronlash tizimlarining ko'pchiligi oylik to'lov, yoki har bir bronlashdan foiz olish tartibiga asoslanadi.

Web saytingiz uchun qanday tizim eng yaxshi tizim ekanligi bu sizning web saytingiz o'ziga xosliklariga bog'liq. Sizning ehtiyojlaringizdan kelib chiqqan holda, web mutaxassislar sizga qanday CMS dan foydalanishni tavsiya etishadi. Biroq, sizga tavsiya etishgan CMS tizimlarining ommabopligini tekshirib, amin bo'ling.

Hozirgi paytda bunday tizimlar juda ko'p va ko'pchiligi bepul. Misol tariqasida Wordpress va Drupal kabi tizimlarni keltirish mumkin. Biroq siz o'ziga xos maxsus qulayliklarga ega pulli tizimlarni ham tanlashingiz mumkin bu sizning web saytingiz xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Online Marketologlar uchun web saytga maqsad qo'yish bir muammo bo'lsa, boshqa bir to'siqlardan biri bu noto'g'ri o'rinda ish olib borishdir. Ya'ni siz saytingizga qancha content tashrif buyurishidan ko'ra sizning web saytingiz qanday ma'lumotlarni taqdim etishi kerakligini bilish ancha qiyin muammodir. Quyida keltirilgan jarayon professional web mutaxassis yordamida ideal web sayt yaratish va ijobiy natijalarga erishishingizga yordam beradi.

Web saytingiz auditoriyasi xoxishlariga etibor qarating va o'zingizning web saytdan ko'zlagan maqsadlaringizga e'tibor qarating hamda shu larga asoslanib web saytingiz umumiy marketing planini strategic maqsadlarini belgilang. Shuningdek, sotuvlar sizning web saytingiz orqali to'g'ridan-to'g'ri amalga oshadimi yoki yo'qmi bu ham sizning potentsial iste'molchilaringiz qaror qabul qilishida muhim unsur sanaladi.

O'z biznesining bir qismi sifatida web saytdan foydalanuvchi firmalar uchun saytida (wireframe)qo'shimcha linklarni qo'llash juda foydali hisoblanadi. Sababi, yuqorida aytilganidek bunday linklar mantiqiy jihatdan mijozlar so'rovda qo'llash ehtimolligi yuqori bo'lgan turli kalit so'zlar bilan nomlanadi. Iste'molchilar qidiruv saytlarida ushbu kalit so'z yoki iboralarni so'rov sifatida yuborishadi va siz nomlagan o'sha web sahifa wireframega duch kelishadi. Siz saytingizni dastlab tashkil etayotganligingizda buni narsani tuzib qo'yishingiz va xoxlagan paytda unga osonlik bilan o'zgartirish kirgizishingiz

mumkin. Biroq saytingiz allaqachon tuzib chiqilgan bo'lsayu unda qo'shimcha linklarni qo'llanmagan bo'lsa buni tashkil etish ancha qimmatga tushadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistonda online turizmni rivojlantirishni ommaviy tus olishi uchun faqatgina yuqorida ko'rsatilgan chora-tadbirlar yetarli emas, albatta. Buning uchun online marketing bo'yicha ta'lim - tarbiya, targ'ibot, tashkiliy- huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishda bir yoqadan bosh chiqarib, yo'limizda uchragan barcha kamchiliklarni bartaraf etib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov rahbarligida, Soliq Davlat qo'mitasi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Adliya vazirligi, Oliy va o'rta maxsus o'quv yurti vazirligi, "O'zbekturizm" Milliy Kompaniyasi, "BMT" Xalqaro tashkiloti qoshidagi "Yunesco" markazi va boshqa turizmni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan qo'mitalar, vazirliklar hamda boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda umumiy ilmiy-iqtisodiy asoslangan O'zbekistonda online turizmning 2015- 2025 - yillar davomida olib boriladigan bosqichma-bosqich rivojlanish strategiya dasturini ishlab chiqib, hayotga izchil tadbir etish kerak.

Vatanimizda online turizmning taraqqiyot salohiyati nihoyatda katta va uni jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Faqat bu salohiyat va imkoniyatlardan jahonda turistlik internet marketingi taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasiga tayangan holda, ish kuchiga talabni oshirgan holda oqilona foydalanish hamda mavjud resurslardan iqtisodiyotni rivojlantiruvchi vosita sifatida foydalanish lozim.

O'zbekistonda online turizmning rivojlanishi, nafaqat ma'naviy – ma'rifiy, ilm- fan, madaniyat, tabiatni muhofaza qilish, turistlarni ona tabiatimizga jalb etish, noyob o'simlik va hayvonot dunyosini saqlash va ko'paytirish muammolarini hal qilishga, balki, iqtisodiy masalalarni - mahalliy xalqning ijtimoiy sharoitini yaxshilash, ularni yangi ish joylari bilan ta'minlash hamda vatanimizning valyuta zahirasi boyishiga ham katta hissa qo'shadi.

Yuqorida havola etilgan O'zbekistonda turistlik internet marketingni rivojlantirish konsepsiyasida ko'rsatilgan omillar va chora - tadbirlar o'z vaqtida to'la - to'kis amalga oshirilsa, ishonamanki, hech shubhasiz yaqin kelajakda O'zbekiston ham dunyoda online turizm taraqqiy etgan mamlakatlar qatorida munosib o'rinni egallaydi.

Tadqiqotlar natijasida quyidagilarni tavsiya etaman:

1. Respublikamizda online turizm sohasida xizmat qiluvchi jahon talablariga javob bera oladigan yuqori malakali mutaxassislarning yetarli emasligini hisobga olgan holda, yosh mutaxassislarni turizm online marketingi

rivojlangan mamlakatlarga (AQSh, Yaponiya, Kanada, Fransiya, Germaniya) malakalarini oshirish uchun o'qishga, ishga yuborish lozim;

2. Jahon andozalari va talablariga mos keladigan ilmiy va iqtisodiy asoslangan katta - kichik, qisqa va uzoq muddatga mo'ljallangan loyihalar va biznes rejalar ishlab chiqib amalga oshirish lozim. Ular ichidan istiqbolli, barcha sarf - xarajatlarni qisqa vaqtda qoplay oladigan, istiqbolli loyihalar, biznes - rejalami amalga oshirishda davlatimiz tomonidan imtiyozli kreditlar ajratish lozim;

3. O'zbekistonda online turizmning jahon talablariga javob bera oladigan moddiy-texnik, axborot-tahliliy bazasini yaratish, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish zarur;

4. Vatanimizning tarixiy yodgorliklari, go'zal va betakror tabiati, landshafti, fauna va florasini haqida bukletlar, turistlik atlas va xaritalar, internetda turoperatorlar tomonidan tayyorlangan reklama sahifa va turpakatlari yordamida dunyo online turizm bozorida targ'ibot ishlarini amalga oshirish lozim;

5. O'zbekiston viloyatlari bo'yicha yangi kombinatsion turistlik dasturlar, yo'nalishlar, online turistlik xaritalar tuzish lozim;

6. Buxoro regionini turistlik erkin iqtisodiy hududga aylantiriladi. Hududga tashrif buyuruvchi sayyohlar nafaqat madaniy, ziyorat, rekreatsion, safar, biznes uchun balki turizm uchun ham tashrif buyura boshlaydilar;

7. Mamlakatimizda turistlik tashkilotlar avtomatizatsiyasini yo'lga qo'yish lozim. Shunda, turistlik sohada endi o'z faoliyatini boshlayotgan turistlik tashkilot rahbarlari soha bo'yicha katta tajribaga ega tashkilotlarning yutuqlaridan ularning brendlaridan, tajribalaridan va boshqa ustunliklaridan bevosita foydalanishadi. O'z navbatida, bu tashkilotlar inqirozga uchash xavfidan o'zlarini himoya qilishda, boshqa jihatdan, ular o'zlari foydalanayotgan tizim egalari ulush to'lash majburiyatini olishadi;

8. O'zbekiston mintaqasi uchun milliy turistlik portalni tashkil etish. Bu lohiha natijasida mamlakatimizdagi milliy va mahalliy turistlik tashkilotlarni internet tarmog'ida umumiy bitta web portal ostida birlashtiriladi va umumiy

mintaqaviy destinatsion online marketing faoliyatini olib borish yo'lga qo'yiladi;

9. O'zbekiston hududidagi turistlik tashkilotlarni yagona milliy turistlik web portal ostida birlashtirish orqali hududning turistlik brendi shakllantirladi va hudud bo'yicha internet marketingini yaxshilanadi;

10. O'zbekiston hududidagi turistlik tashkilotlar internet marketingini yaxshilash, ularning virtual imidjini optimallashtirish, ularning mavjud web saytlaridagi kamchiliklarni bartaraf etiladi;

11. Hozirda ushbu loyihalarni "Autentic Travel" tur firmasiga hamda O'zbek Turizm Milliy Kompaniyasiga taqdim etganman. Shu kunlarda, loyiha ustunlik va kamchiliklarini o'rgangan holda amalga oshirish chora tadbirlarini ishlab chiqmoqdamiz.

Adabiyotlar ro`yxati

I.O`zbekiston Respublikasi qonunlari

1. Ўзбекистон Республикасининг “Туризм тўғрисида”ги қонуни. - Ўзбекистоннинг янги қонунлари. Т. 22. -Т.: Адолат, 2000. -131-140 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон . 2013. - 40 б.

II. O`zbekiston Respublikasi prezidenti qarorlari va farmonlari

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбектуризм” МКсининг ташкил топиши” тўғрисидаги фармони № ПФ-447. //Халқ сўзи. 1992. 27 июл.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1995 йил 2 июндаги 1162 рақамли ”Буюк Ипак йули”ини қайта тиклашда Ўзбекистон Республикасининг иштирокини авж олдириш ва республикада “Халқаро туризмни ривожлантириш борасидаги чора -тадбирлар тўғрисида”ги фармони. //Халқ сўзи, 1995 йил 3-июн.
- 5.Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг №346 1998 йил 8 августда қабул қилинган “Туристик ташкилотларнинг фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида”ги фармойиши. //Халқ сўзи, 1998 йил 9 август.
- 6.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 17 майдаги «Хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасини 2006-2010 йилларда ривожлантириш ҳақида»ги ПК-325-сонли қарори.
- 7.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2007 йил 21 майдаги «Ўзбекистон Республикасида 2010 йилга қадар хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасини ривожлантиришни жадаллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар ҳақида»ги ПК - 640-сонли қарори.
- 8.Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. Ишлаб чиқариш ва ижтимоий инфратузилмани янада ривожлантириш юзасидан қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. 2009 йил 20 январь, ПК -1041- сон.
- 9.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2 011 йил 7 февралдаги “Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик йили” Давлат дастури тўғрисида”ги ПК 1474-сонли қарори.

III. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlar va O`zbekiston Respublikasi Vazirliklarning huquqiy – me'moriy hujjatlar

10.“Сайёхларининг Ўзбекистон Республикасига келиши ва кетиши тартиби тўғрисида”ги низом. “Ўзбектуризм” МК 13.09.2004 йил 23- сон.

11.“Туризм фаолиятини лицензиялаш тўғрисида”ги низом 2003 й №497

IV. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma`ruzalari

12. I.A. Karimovning. YUNESKO Ijroiya Kengashi 155-sessiyasining yakunlovchi majlisida 1998-yil 6-noyabrda so'zlagan nutqidan // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. - T.: «O'zbekiston», 1999. 193-206-b.

14.Каримов И.А. “Бизнинг бош мақсадимиз -жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир”. -Т.: Ўзбекистон, 2005. - 136 б.

15.Каримов И.А. Мамлакатимиз тараққиётининг қонуний асосларини мустаҳкамлаш фаолиятимиз мезони бўлиши даркор. Халқ сўзи, 2006 йил 25 февраль.

16.Каримов И.А. Эришилган ютуқларни мустаҳкамлаб, янги марралар сари изчил ҳаракат қилишимиз лозим. Халқ сўзи, 2006 йил 11 февраль.

17.И.А.Каримов Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йуллари ва чоралари/-Т.:Ўзбекистон, 2009.-56 б.

18.Ўзбекистон Конституцияси - биз учун демократик тараққиёт йўлида ва фуқаролик жамиятини барпо этишда мустаҳкам пойдевордир. - Президент Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 17 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси // Халқ сўзи, 2009 йил 6 декабрь.

19.Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза), “Халқ сўзи”, 2010 йил 13 ноябрь (№ 220),

20.Асосий вазифамиз - Ватанимиз тараққиёти ва Халқимиз фаровонлиги янада юксалтиришдир/И.А.Каримов. -Тошкент:«Ўзбекистон», 2010. - 80 б.

21.Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади. - Президент Ислон Каримовнинг 2010 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2011 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йуналишларга бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси //Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

22.Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. T: O'zbekiston, 2011.

23.Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. T.: "O'zbekiston", 2012 yil.

24.Prezident Islom Karimovning "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. 17. 02. 2012. http://www.press.service.uz/uz/news/show/main/vyistuplenie_prezidenta_respubliki_uz_15/

25. I.A.Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T.: <<O'zbekiston>>, 1992

26. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom etish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljllangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'lanishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi", 2013 yil 23 yanvar.

VI. Darsliklar

27. Азар В.И.,Туманов С.Ю. Экономика туристического рынка.-М., 1998 г.

28. Алиева М.Т. Мехмонхона менежменти. Дарслик.-Т.:ТДИУ.2007. - 275 б.

29. Атышов К., Турдумамбетов Б. Экотуризм.: учебное пособие, Б., 2004 г.

30. Атышов К. Кыргызстандын туризм географиясы., Б.,1996 г.

31. A. Nig'matov, N. Shomurodova - Ekoturizm asoslari - T.: < Toshkent-Iqbol>2007

32. Биржаков М.Б. Введение в туризм. - С.Пб.: Издательский Торговый Дом «Герда». 2004. -444 с.

33. .Бутуров И.Н. Маркетинг и менеджмент иностранного туризма. - М.: Финансы и статистика. 2003. -107 с.

34. Гостиничный и туристический бизнес. Под ред. А.Д.Чудновского – М.: Тандем, 1998 г.

35. Кабушкин Н. И. Менеджмент туризма. -М.: Новое знание. 2005. - 644 с.

36. Пардаев А., Норчаев А.Н. Халқаро туризм. Дарслик. -Т.: ТДИУ 2010. -320 бет.

VII. O`quv qo`llanma

37.Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг “Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш - устувор мақсадимиздир” ҳамда “Асосий вазифамиз - Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир” номли маърузаларини ўрганиш бўйича ўқув- услубий мажмуа. - Тошкент: Иқтисодиёт. - 2010. -281 б.

38. Бу муқаддас Ватанда азиздир инсон. Ўзбекистоннинг 19 йил мустақил тараққиёт йўлида жамиятни модернизациялаш ва иқтисодиётни инновацион ривожлантиришнинг дадил одимлари ва муваффақиятлари: талаба ёшлар ва кенг жамоатчилик билан учрашувларда фойдаланиш учун ижтимоий-иқтисодий ва маънавий- маърифий мавзуда илмий-оммабоп рисола. - Т.: “Иқтисодиёт”, 2010. - 148 бет.

39.Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг БМТ саммитининг Минг йиллик ривожланиш мақсадларига бағишланган ялпи мажлисидаги нутқини ўрганиш бўйича ўқув-услубий мажмуа. Тошкент: “Иқтисодиёт” нашриёти, 2010. - 146 бет.

40.Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг 2010 йил 12 ноябрдаги қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” мавзусидаги маърузасини ўрганиш бўйича ўқув-услубий мажмуа, Т.: “Иқтисодиёт” 2010. - 281 б.

41.Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Экологический туризм: сущность,тенденции и стратегия развития.-Т. : Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 415 стр.

42.Александров А.Ю. Международный туризм. Учебное пособие. - М.: Аспект Пресс. 2004. -470 с.

43.Балабанов И.Т. Балабанов А.И. Экономика туризма. Учебное пособие. -М.: Финансы и статистика. 2003. - 176 с.

44.Биржаков М.Б. Введение в Туризм: Учебник. - СПб.: «Издательский дом Герда». 2006. - 512 с.

45.Гуляев В.Г. Правовое регулирование туристской деятельности. - М: Финансы и статистика. 2006. -304 с.

46. Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе. Учебное пособие. - М.: КНОРУС. 2005. - 192 с.
- 51.Здоров А.Б.Экономика туризма -М.: Финансы и статистика. 2004. -266 с.
- 52.Козырев В.М., Зорин И.В., Сурин А.И. и др. Менеджмент туризма. Экономика туризма.Учебник. -М: Финансы и статистика, 2004. -253 с.
- 53.Мирзаев. Р. Солнце путешествует по миру чтобы рассеять тени. - Т.: Ипак “Шарк”. 2005. -230 с.
- 54.Норчаев А.Халкаро туризм.Ўқув кулланма.-Т.:ТДИУ.2007. - 235 б.
- 55.Самойленко А.А. География туризма: Учебное пособие. - Ростов на Дону: «Феникс». 2006. - 368 с
- 56.Сапожникова. Е.Н. Страноведение: Теория и методика туристского изучения стран. -М.: КНОРУС. 2005. -240 с.
- 57.Сенин В.С. Организация международного туризма. -М.: Финансы и статистика. 2004. - 400 с.
- 58.Чудновский А.Д. Управление индустрией туризма: Учебное пособие. - М.: КНОРУС. 2005. - 448 с.
- 59.Travel Guide Uzbekistan -Tashkent:National Company Uzbekturizm. 2008. -10 p.
- 60.Гостиничный и туристический бизнес. Под ред. А.Д.Чудновского – М.: Тандем, 1998 г.
- 61.Докматов Г.М. Правовые основы туристического бизнеса: учебное пособие. – М.:МЭСИ, 1997 г.
- 62.Егоренков Л.И. Экология туризма и сервиса. – М.: ФиС, 2003 г.
- 63.Жыргалбеков Т.Ж. Туризм Кыргызстана в документах и материалах.– Б., 1998
- 64.Уваров В.Д., Борисов К.Г. Международные туристические организации: справочник. – М., 1990 г.
- 65.Ecotourism. D. Fennel. 1999
- 66.Sustainable tourism management. Swarbrooke. 1998
- 67.Tourism, ecotourism and protected areas of Cambridge. Lascrain H. 1998
68. Murodxon Hoshimov “O`zbekiston ekologik turizmi”, Monografiya, «Zarafshon» nashriyoti DK, Samarqand – 2009
- 68.A.YU.Aleksandrova.Mejdunarodniy turizm.Uchebnik.M.Aspek press,2002g,470 s.

69. N.Ahmedova, M.Xoshimov, T.SHaymuratov. Kitob geologik qo`riqxonasi, Samarqand, “Zarafshon”, 1997 y.
- 70.A.T Bannikov. Po zapovedenikam Sovetskogo Soyuz. Moskva, 1974 g.
- 71.M.B. Birjakov. Vvedenie v turizm. Izdatel'stvo «Gerda», 2000 g, 192 s.
72. Z.M.Bobur.«Boburnoma». Toshkent, 1982 y.
73. N.P.Borodin.Oxrana pamyatnikov prirodi. Sankt Peterburg. 1914 g, 97 s.
74. A.L.Brodskiy.Oxrana prirodi v Turkestane. Toshkent, 1913 g.
- 75.G.S.Gujin, M.YU.Belikov, B.V. Klimenko. Menedjment v inostrannom i vnutrennem turizma. Krasnodar, Kubanskiy univeristet, 1977 g.
- 76.V.I. Danilov – Danil'yan, V.G.Gorshkov i dr. Okrujayushaya sreda mejdu proshlim i budeshem: Mir i Rossiya. Moskva, VINITI, 1994 g.
- 77.S.R. Erdavletov. Kazaxstan turistechiskiy. Alma-Ata, Kaynar, 1989 g.
- 78.S.R. Erdavletov. Geografiya turizma Kazaxxstana. Alma-Ata, Filim, 1989 g.
